

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik fakulteti

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZINING TURKIYADAGI
IQTISODIY O'SISH SUR'ATLARIGA TA'SIRI VA UNI BARTARAF
ETISH CHORA-TADBIRLARI**

Bajardi: "MDH, Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi
iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi" ta'lim yo'nalishi
bitiruvchi kurs talabasi Ermetov Aziz
Axmadovich_____

Ilmiy rahbar: "MDH, Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi
iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi" kafedrası
o'qituvchisi Qodirova Z.A._____

Ilmiy maslahatchi: "MDH, Yaqin va O'rta Sharq
mintaqasi iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi" kafedrası
o'qituvchisi Ziyadullayeva L.S._____

Toshkent-2011

MUNDARIJA

KIRISH.....	4-7
--------------------	------------

I-BOB. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZINING KELIB CHIQISH SABABLARI, MANBALARI VA OQIBATLARI.....	8-28
--	-------------

1.1. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va uning ko'lamini.....	8-20
1.2. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etishda xalqaro hamkorlik.....	21-28

II-BOB. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI SHAROITIDA TURKIYADA MAKROIQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	29-50
---	--------------

2.1. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Turkiyadagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri.....	29-38
2.2. Turkiyada Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari.....	38-50

XULOSA.....	51-54
--------------------	--------------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	55-62
--	--------------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bu 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamda uning salbiy ta'siri va oqibatlarini bartaraf etishdan iboratdir¹.

Darhaqiqat, 2008-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida boshlangan mazkur jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ko'lami juda keng miqyosda quloqch yoyib, qator mamlakatlarga o'zining ayanchli ta'sirini o'tkazar ekan, jahon hamjamiyati mazkur muammoni hal qilish, uning asoratlarini yumshatish va unga qarshi choratadbirlar ishlab chiqishdek muhim masalani o'z kun tartibiga qo'yishga majburdir.

Global inqirozning ko'lami va uning o'tkazayotgan ta'sir doirasi dunyo mamlakatlarini yana bir bor sergak tortishga, xususan bank sektori tizimini isloh qilish, iqtisodiy sektorlar va tashqi hamkorlarni diversifikatsiya qilish, shuningdek ko'chmas mulk bozorini mukamallashtirish kabi masalalarga alohida e'tibor berishga jazm etdi.

Mazkur jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bilan faol kurashayotgan, uning asoratlarini yumshatish va etishda samarali faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlardan biri bu Turkiya Respublikasidir. Bir paytning o'zida ikki qit'ada, ya'ni Evropa va Osiyo qit'asida joylashgan, asosiy tashqi savdo hamkori jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozida AQSHdan keyin eng ko'p talofat ko'rgan Evropa Ittifoqi mamlakatlari bo'lgan, katta miqdorda ishchi kuchi eksportiga asoslangan, turizm va tekstil sektorlari muhim daromad manbaiga aylanib qolgan Turkiya Respublikasiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'sirini baholash, shuningdek mamlakatda ishlab chiqilgan antikrizis choralari tahlil qilish aynan mazkur masalaning dolzarbligini belgilab beradi.

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent, "O'zbekiston", 2009.3-bet.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, tushunchasi va mohiyati, inqirozning ta'siri, uni bartaraf etish yo'llari va choralarini o'rganishning nazariy-uslubiy jihatlari xorijlik iqtisodchi-olimlar – Frenkel, Robertol, Martin Rapetti Michael, Brook, Anne-Marie va Edward Whitehouse larning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Shuningdek, mazkur masalalar bo'yicha qator rus iqtisodchilari Bogomolov, Krugman, Shishkov, Grinyaev, Svistunova, Xisbulatovlarning ilmiy tadqiqot ishlarini ham ta'kidlab o'tish joizdir.

Chunonchi, mamakatimizda 2008-yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uning ta'siri, inqirozni bartaraf etish choralarga bag'ishlangan masalarini o'rganganlik darajasini tahlil qilishda, albatta birinchilardan bo'lib yurtboshimish I.A. Karimovni, shuningdek Matveev, To'hliev, Vaxobovlarni alohida ta'kidlashimiz joizdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Turkiya Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil qilish va mazkur masala bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar tayyorlashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Ushbu maqsadga erishish uchun ishda quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va uning ko'lamini yoritib berish;
- Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini bartaraf etishda xalqaro hamkorlik masalalarini ochib berish;
- Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Turkiyadagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini izohlab berish;

-Turiyada jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etish masalalarini tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti etib, Turkiya Respublikasi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tanlab olindi, **predmeti** esa jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'siri hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asosi bo'lib, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining sabablari va oqibatlari, uni bartaraf etish chora-tadbirlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar, yirik iqtisodchi-olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy kontseptsiyalar xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari. Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida me'yoriy, taqqoslash, guruhlash, hisob-konstruktiv va boshqa usullar qo'llanildi.

Bitiruv malakaviy ishining axborot bazasi sifatida Turkiya Respublikasi statistika qo'mitasi Turk Stat, TEPAV, SETA, IŞKUR kabi tadqiqot institutlari ma'lumotlaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Turkiya Respublikasidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini va inqiroz sharoitida mamlakatda ko'rilgan chora-tadbirlar majmuasini taxlil qilishdir.

Ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi ilmiy asoslangan takliflardan mamlakatimizda inqirozga qarshi ko'rilayotgan chora tadbirlar bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Shuningdek, bitiruv malakaviy ish materiallaridan Turkiya Respublikasi iqtisodiyotini o'qitish bilan bog'liq o'quv kurslarini o'qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining **kirish** qismida tadqiq etilayotgan mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, yangiligi va amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi **“Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabalari, manbalari va oqibatlari ”** deya nomlangan bo'lib, unda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va oqibatlari, hamda mazkur inqirozni batraf etishda xalqaro hamkorlik masalalari batafsil yoritilgan.

Ishning **“Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Turkiya Respublikasida makroiqtisodiy rivojlanish tendensiyalari”** nomli ikkinchi bobida esa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Turkiya Respublikasidagi makroiqtisodiy ko'rsakichlarga ta'siri, shuningdek, inqiroz oqibatlarini bartaraf etishda mamlakatda ko'rilgan chora-tadbirlar asoslab berilgan.

Ishning **xulosa** qismida olingan ilmiy xulosa, amaliy tavsiya va takliflar umumlashtirilgan.

I-BOB. JAHON MOLİYAVIY-IQTISODIY INQIROZINING KELIB CHIQISH SABABLARI, MANBALARI VA OQIBATLARI

1.1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va uning ko'lam

2008-yildagi jahon moliyaviy–iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari, uning oqibatlari xamda uni barataraf etish chora tadbirlarini o'rganish uchun avvalo, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy inqiroz kabi tushunchalar va ularning mohiyatiga to'xtalib o'tish lozim.

Iqtisodiy o'sishning zamonaviy turi ilk bor Angliyada XVIII asrning ikkinchi yarmida sanoat inqilobining amalga oshirilishi natijasida qayd etilgan². XVIII asr boshidan boshlab jahonda real daromad jon boshiga o'rtacha 10 barobarga o'sgan, rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich bundan ham yuqori ko'rsatkichni, mamlakatlarda jon boshiga to'g'ri daromadlar o'rtasidagi tafovut 10-30 barobarni tashkil qilgan³. Qator qashshoq mamlakatlarda aholining 1 kunlik daromadi atiga 1 AQSH dollariga teng bo'lgan.

XX asr boshiga qadar iqtisodiy o'sish sur'atlari haqida aniq ma'lumotlar qayd etilmagan. Iqtisodiy o'sish sur'atlari va real YaIM haqida Angus Meddison birinchilardan bo'lib izlanishlar olib borgan. Mamlakat salohiyatini belgilovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi, raqamlarda ifodalangani bilan iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichidan farq qiladi. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi mamlakat real YaIMining umumiy yoki aholining jon boshiga to'g'ri keladigan uzoq muddatli o'sish tendensiyasi sifatida izohlanadi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish ko'rsatkichini bevosita mamlakat aholisining farovonlik darajasining (uzoq umr ko'rish ko'rsatkichi, meditsina xizmatining

² www.wikipedia.ru

³ O'sha joyda

sifati, savodxonlik darajasi, ish kunining qisqartirilishi va boshqalar) o'sishi bilan ham bog'lash mumkun. Iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi bir qancha omillar mavjud:

- Tabiiy resurslarning hajmi va sifati;
- Mehnat resurslarining hajmi va sifati;
- Kapital;
- Texnika taraqqiyoti;

Yuqoridagi omillar ishlab chiqarish miqdorining o'sishiga olib kelsada, lekin o'sgan YAIMni sarflanishi yoki iste'mol qilinishi ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash joizdir. Shuning uchun ham iqtisodiy o'sish talab va taqsimlash omillari bilan ham uzviy bog'langan.

Zamonaviy iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishning 4 ta turi ajratiladi:

1. Yetakchi mamlakatlarning bir maromda o'sishi (AQSH, Yevropa);
2. O'sish mo'jizalari (Yaponiya, Janubiy Koreya, Gonkong);
3. O'sish fojealari (Ayrim Markaziy Afrika davlatlari);
4. Iqtisodiy o'sishning mavjud emasligi (Zimbabve)⁴.

Umuman olganda iqtisodiy o'sish intensiv va ekstensiv turlarga bo'linadi. Ekstensiv o'sish resurs miqdorining oshirilishi evaziga amalga oshiriladi (masalan, xodimlar shtatining kengaytirilishi hisobiga), lekin o'rtacha mehnat unumdorligining o'sishi unchalik sezilmaydi. Ekstensiv o'sishga resursning miqdoridan ortiq foydalanish sharoitida sermahsullikning kamayish qonuni mos keladi.

Intensiv iqtisodiy o'sish esa, boshqaruv tizimi, texnologiyalarni innovatsiyalar yordamida modernizatsiya qilish, mukammallashtirish va inson kapitali sifatini oshirish bilan bog'liq. Mamlakatning intensiv yoki ekstensiv o'sayotganligini belgilashda, real YAMM tarkibi o'rganiladi. Agar real YAMM

⁴www.wikipedia.ru

miqdori o'sishida intensiv o'sishning ulushi 50% dan yuqori bo'lsa, iqtisodga intensiv o'sish, aks holda esa ekstensiv o'sish xarakterli bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishning ham salbiy va ijobiy jihatlari mavjud. Jumladan, iqtisodiy o'sishning salbiy tomonlari quyidagilar:

- Atrof-muhitning ifloslanishi. Ishlab chiqarishga jalb etiladigan deyarli barcha resurslar vaqti kelib chiqindi sifatida yana tabiatga qaytariladi, chunki ishlab chiqarish jarayoni ularni shaklini o'zgartiradi, lekin butunlayin utilizatsiya qilinmaydi. Shuning uchun ishlab chiqarishi yuqori rivojlangan mamlakatlarda ekologik inqirozning havfi mavjud.
- Iqtisodiy o'sish barcha muammolarni hal qilmaydi. Masalan, mamlakatning qashshoqlik darajasi ishlab chiqarish hajmiga emas balki milliy daromad taqsimotining shakllangan mexanizmlari bilan bog'liq.
- Kafolatning yo'qligi. Yuqori sur'atlardagi iqtisodiy o'sish bandlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin, chunki rivojlangan texnologiyalar sababli ishchi kuchiga ehtiyoj kamayadi.
- Inson qadr-qimmatiga beparvolik. Iqtisodiy o'sish industrializatsiya, yalpi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, unda ijod qilish erkinligi yo'q va bu ishchilarni qoniqtirmaydi.

Endi iqtisodiy o'sishning ijobiy tomonlariga to'xtalsak:

- Yashash darajasining oshishi. O'sish sharoitida ijtimoiy maqsadlarni belgilash ancha erkinlashadi, bir qancha maqsadlar (armiyani modernizatsiya qilish, kam ta'minlanganlarga yordamlar, ta'lim tizimini yaxshilash va boshqalar) ni bir vaqtda hal qilish imkoni tug'iladi.
- Iqtisodiy o'sish va atrof-muhitning ifloslanishi muammolarini ajratish. Atrof-muhitning ifloslanishi iqtisodiy o'sishning salbiy oqibati emas, balki resurslarning ratsional ishlatilmasligi oqibati deb qarash mumkin. Tabiiy resurslar (daryolar, ko'llar, okean, havo) ga ko'pchilik mulki sifatida qaraladi va ular

qadrlanmaydi. Shuning uchun ham bu resurslar keragidan ko'p miqdorda va nazoratsiz sarflanadi. Iqtisodiy o'sishning to'xtatilishi bu muammoni hal etmaydi. Bu yerda jamoat tashkilotlari, davlatning ekologiyaga oid normativ hujjatlarini qo'llash foyda beradi.

- Ijtimoiy tenglikka erishish imkoniyatini vujudga kelishi. Har bir jamiyatning yashash sifatiga oid o'zining qarashlari mavjud, lekin har yerda inson eng avvalo minimal yashash sharoiti bilan ta'minlanishi kerakligi ta'kidlanadi. O'sish sharoitida mamlakatning ijtimoiy muammolarni hal etishga imkoniyatlar topishi osonlashadi.
- Noiqtisodiy asoslar. Iqtisodiy o'sish mehnat sharoitlarini yaxshilanishi, insonlarni ta'lim olish, o'zi ustida izlanishi uchun vaqt va imkoniyatlar yaratadi. Iqtisodiy o'sishni sekinlashtirish yoki to'xtatib qo'yish, "yaxshi hayot" ni boshlanishi degani emas. Aksincha, shakllangan tizim oxir-oqibat jamiyat tanazzuliga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan salbiy va ijobiy jihatlar rivojlangan mamlakatlarning ekstensiv o'sishdan intensiv o'sishga o'tganligini ko'rsatmoqda.

Endi inqiroz tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Inqiroz so'zi yunoncha "krisic" so'zidan olingan bo'lib, "burilish joyi" degan ma'noni anglatadi. Oksford universitetining professori Filip Keyning fikriga ko'ra, ilk inqiroz miloddan avvalgi 88-yilda Rim imperiyasida yuzaga kelgan. Boshqa olimlar esa ilk iqtisodiy inqiroz deb, 1825-yilda Angliyada yuzaga kelgan, AQSH va Fransiya iqtisodiyotlariga ham qisman ta'sir o'tkazgan inqirozni aytishadi⁵. Iqtisodiyotda ikki turdagi inqiroz ajratiladi. Bular iqtisodiy va moliyaviy inqirozlardir. 2009-yilgi inqiroz Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bo'lgani uchun, ikkala turdagi inqirozning ta'rifini ko'rib chiqishimiz kerak.

⁵ www.wikipedia.ru

Moliyaviy inqiroz qaysidir moliyaviy instrument narxining keskin tushishidir. Bu termin shuningdek, fond bozorlarida “iqtisodiy pufaklar” portlashi sharoitida ham qo’llanadi. Turmush hayotda esa mazkuratama pulni kamligi, naqd pul tanqisligini ifodalaydi.

Iqtisodiy inqiroz esa oddiy iqtisodiy faoliyatda jiddiy muammolarning kelib chiqishidir. Bunday inqirozlarning shakllaridan biri sistematik inqirozdir, unda katta hajmda qarzlarni yig’iladi va ularni muddatida qaytarish imkoni bo’lmaydi. Shuningdek, inqiroz ishlab chiqarishdagi defitsit yoki ortiqcha ishlab chiqarish oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Birinchi xolatda talab qondirilmasa, ikkinchisida taklif rag’batlantirilmaydi. Shuning uchun ham bunday inqirozlarning asosiy sababi sifatida talab va taklif o’rtasidagi muvozanatning buzilishi ko’rsatiladi⁶.

2007-yildagi AQSHdagi ipoteka inqirozi haqida to’xtaladigan bo’lsak, banklar kam daromadli va avvallari ham kredit masalasida banklar ishonchini oqlay olmagan shaxslarga kredit ajratadilar. Natijada uy-joy narxining 20%lik qisqarishi yuzaga keladi va amerika ko’chmas mulk egalari jami 5 trln. AQSH dollari zarar ko’radilar. “DIE WELT”⁷ dagi AQSH moliyachisi Jorj Soros 2008-yil 14-oktabrda “ipoteka sovun pufagi”ni bor yo’gi “katta pufag” ni portlashiga olib keluvchi mexanizm tepkisi sifatida baholadi. Qator mutaxassislarning ta’kidlashicha, 1990-yillardan boshlab yasama moliya vositalari – derivativlardan foydalanish va xavf-xatarni oshirish evaziga yuqori daromad olishga intilish ipoteka inqiroziga turtki bo’lgan. Lekin bu fikrlar aniq tahlillarga tayanmagan.

Inqirozning yuzaga kelishida xom-ashyo narxining ham sezilarli ta’siri bor albatta. 1981-2000-yillarda kuzatilgan iste’mol mahsulotlarining katta


⁶ В.Г.Матвеев. “Основы экономических знаний”, “Шарк”, 1998 год

⁷ www.welt.de

depressiyasidan keyin, muntazam iste'mol o'sishi boshlandi. Bu esa xam-ashyo narxining o'sib borishiga olib keldi.

1.1.-diagramma

Neft narxining 1998-2008-yillardagi dinamikasi



Manba: www.wikipedia.com

2008-yilda ko'plab mahsulotlar, ayniqsa neft va oziq-ovqat mahsulotlarining narxi iqtisodiyotga zarar yetkazuvchi darajada o'sdi. Jumladan 2008-yil yanvar oyida bir barrel neft narxi 100 AQSH dollaridan oshib ketdi. 2008-yil 11-iyulda WTI markasidagi neftning bir barreli tarixdagi eng yuqori maksimumga erishib, 147,27 AQSH dollariga sotildi. Inqiroz ta'sirida esa, 2008-yil oktabrida narx 61,24 AQSH dollariga, noyabrda esa 51 AQSH dollariga tushdi.

Yuzaga kelgan oziq-ovqat va yoqilg'i inqirozlari 2008-yil iyulida bo'lib o'tgan "Katta sakkizlik"ning 34-sammitida ko'rib chiqildi. FAO⁸ bergan ma'lumotlarga ko'ra, Jaxon oziq-ovqat mahsulotlarining narx indeksi 2010-yil

⁸ Food and Agriculture Organization. www.fao.org

dekabrda 215 punktni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2010-yil iyul-dekabr oylarida 32%ga o'sgan. 2011-yil yanvar oyida esa FAO ning narxlar savdo indeksi 231 punktga ko'tarilib, FAO indeksni o'lchashni boshlagan 1990-yildan buyon qayd etgan eng yuqori ko'rsatkich bo'ldi. Natijada, 2011-yil boshiga kelib dunyo katta siyosiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi kutilayotgan savdo inqirozi yoqasiga kelib qoldi. Jumladan, past turmush darajasi va qisman savdo inqirozi tufayli Tunis va Misrda inqilob otkazildi va bu inqiloblar to'liqini barcha arab davlatlarini xavotirda ushlab turibdi.

Jahon fond bozorlaridagi vaziyatga to'xtaladigan bo'lsak, 2007-yil 31-oktabrigacha dunyo fond bozorlarining indekslari ko'tarilish cho'qqisida bo'lgan. Shu kundan esa barcha indekslar tushishi boshlangan. 2008-yil 3-oktabrida AQSH Kongresi palatasi ikkinchi o'qishda "Polson rejasi"ni tasdiqlaganida, S&P 500 indeksi 30 %ga, rivojlangan mamlakatlar bozorlarining dinamikasini ko'rsatuvchi - MSCI World indeksi 32,3%ga, MSCI Emerging Markets - rivojlanayotgan bozorlar indeksi 40,5 %ga tushib bo'lgan edi. 2000-2002-yillardagi texnologik kompaniyalar fond bozorlarida yuzaga kelgan va faqat AQSH fond bozorlariga ziyon yetkazgan fond bozori inqirozidan farqli, 2007-2008-yillardagi inqiroz jaxon fond bozoriga zarar yetkazdi⁹.

Shuningdek jarayonni fond bozoridan tashqaridagi vaziyatlar bilan ham uzviy bog'langan. Yani mazkur holat kredit va uy-joy sektorlarida yalpi faollik va keyinchalik uning sinishi, xom-ashyo bozorlarida dastlab G'arb banklari aksiyalari, 2008-yil iyulidan boshlab neft narxi tusha boshlaganidan keyin esa rivojlanayotgan mamlakatlarning xom-ashyo kompaniyalari aksiyalari tushishi bilan izohlanadi. 2008-yil 6-10-oktabr bank haftaligida AQSH savdo maydonida tarixiy indeks tushishlari qayd etildi. Jumladan, Dow Jones Industrial Average indeksi 7882,51 punktga tushib, 8451,19 punktda savdoni yopdi. 2008-yil 10-oktabr, juma kunidagi fond bozoridagi keskin pasayish xolatini "The Financial Times" nashri

⁹ www.wikipedia.com

1938-yil 10-oktabrdagi fond bozoridagi inqirozga solishtirdi. O'sha kungi S&P 500 indeksining oxirgi o'n yildagi tushishi, hozirgi indeks tushishga juda yaqin. 2008-yilgi fond bozoridagi tushish darajasi AQSH tarixidagi oxirgi yigirma yillikdagi rekord natija bo'lgan bo'lsa, Yaponiyaning tarixi davomidagi rekord tushish darajasi bo'ldi.

Albatta inqiroz bank sektorini ham chetlab o'tgani yo'q. AQSHning yetakchi 5 ta investitsion banki oz' faoliyatini to'xtatdi yoki o'zgartirdi: Bear Stearns va Merrill Lynch (100 yildan oshiq faoliyat ko'rsatgan) qayta sotildi, Lehman Brothers (160 yil faoliyat ko'rsatgan) bankrot deb e'lon qilindi, Goldman Sachs va Morgan Stenly banklari mavjud xavf-xatar ehtimolining yuqoriligi va Federal Rezerv Tizimi yordamiga muhtojligi uchun investitsion bank sifatidagi faoliyatlarini to'xtatdilar. Umuman olganda, 2007-yilda 3 ta, 2008-yilda 25 ta, 2009-yilda 140 ta, 2010-yilda 157 ta va 2011-yil apreliga qadar 26 ta, jami 348 ta AQSH banki yopildi.

Moliyaviy tanglik holati albatta Yevropa Ittifoqini ham chetlab o'tgani yo'q, Yevro hudud YaIM ining 2008-yil ikkinchi va uchinchi choraglarida 0,2 % dan qisqarganini e'lon qildi. Bu Yevropa Ittifoqining so'nggi 15 yilda retsessiya davriga tushishi edi. Yevrostatning 2009-yil fevral oyidagi ma'lumoti esa Yevropa Ittifoqning sanoat ishlab chiqarishi 12 % ga qisqarganini ko'rsatdi. Bunday salbiy ko'rsatkich Yevrostat faoliyat boshlagan 1986-yildan beri kuzatilmagan edi.

Yuzaga kelgan ipoteka inqirozi 2008-yil sentabrida Jaxon banklarining likvidlik inqirozini olib keldi. Banklar kreditlar berishni to'xtatishdi. Jumladan, avtomobil kreditlarining to'xtatilishi Jaxon avtosanoati yetakchilarining savdo hajmini qisqarishiga olib keldi. Inqiroz ko'chmas mulk sektoridan real iqtisodiyot sektoriga o'tdi va retsessiya boshlanib, ishlab chiqarish hajmlari qisqardi. Avtomobilga bo'lgan talab hamqisqardi. Natijada, 2008-yil avgustida Yevropada avtomobil savdosi 16 %ga, sentabr oyida AQSHda 26 %ga, Yaponiyada 5,3 % ga qisqardi. Tabiiyki avtosanoat yetakchilarining savdo hajmlari sezilarli darajada tushdi. Jumladan, oktabr oyida 3 ta avtosanoat yetakchisi OPEL, FORD va

DAIMLER Germaniyadagi savdo hajmini qisqarganini e'lon qildilar. Daromadlarning qisqarishi albatta ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga undaydi. Bu esa xodimlarning ishdan bo'shatilishi, filallarning yopilishi demakdir. Avtosanoatdagi inqiroz ham metal ishlab chiqarish va avtosanoatga bog'liq sohalardagi ishlab chiqarish hajmlari va xodimlar sonini qisqartirishga olib keldi.

Yana bir o'ziga xos jihat inqirozning ommaviy axborot vositalariga ham salbiy ta'sir o'tkazganidadir. Jumladan, 2009-yilda AQSH ning ko'plab nomdor nashrlari bankrotlik sabab o'zlarini yopilganliklarini e'lon qilishdi. Parijda 1966-yildan faoliyat ko'rsatuvchi "Gamma" fotojurnal agentligi ham 2009-yilda o'zini bankrot deb e'lon qildi. Inqiroz boshidan 2009-yil iyuniga qadar Rossiyada ham 200 ga yaqin hududiy gazeta va jurnallar yopildi. Tojikistonda ham davlat OAV ni moliyalashni qisqartirganligi sababli, ko'plab nashriyotlar yopildi, qolganlari muntazam chop etmaydigan bo'ldi.

Inqirozning kelib chiqish sabablari, o'ziga xosligi borasida turli fikrlar mavjud. Quyida xulosa o'rnida inqiroz borasidagi e'tiborga loyiq qarashlar yoritiladi.

Yurtboshimiz jaxonda oz' e'tirofini topgan va Respublikamizning iqtisodiy o'sishini ta'minlagan siyosatning asoschisi xisoblanadi. Og'ir inqiroz sharoitida oqilona belgilangan vazifalar, Jaxonda retsessiya kuztilayotgan paytda O'zbekistonda YaIM ning o'sishini ta'minladi. Jumladan, 2009-yil mart oyida nashr qilingan "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli prezidentimiz asari hukumatimiz uchun dasturi amal bo'lib xizmat qildi. Unda inqiroz AQSHda ro'y bergan ipotekali kreditlash tizimidagi tanglik holatidan boshlangani, so'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, Bank va moliyaviy tizimlarning likvidligi zaiflashib moliyaviy inqirozga aylanib ketgani, dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib kegani, bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin

pasayib ketishi bilan bog‘liq ishsizlik va boshqasalbiy oqibatlarni keltirib chiqargani ta’kidlangan¹⁰. Shuningdek asarda, qator yetakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo‘lgan oqibatlariga doir materiallarni o‘rganish va umumlashtirish natijasida bir qator xulosalarga kelgani ta’kidlangan bo‘lib, ular quyidagilar dan iborat:

Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarliligi, investitsiyaviy faollik ko‘laming cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko‘plab mamlakatlariga ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo‘lishi mumkinligi o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko‘rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o‘z korporativ manfaatlarini ko‘zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog‘ozlar bozorlarida turli spekuliyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo‘qligini ham tasdiqladi.

Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko‘lami va oqibatlari qanday bo‘lishi ko‘p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. Ya’ni, bu avvalo, ana shu davlatning moliya-valyuta tizimi nechog‘liq mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to‘lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valyuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada — mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog‘liq.

To‘rtinchidan, jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko‘p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman,

¹⁰ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2009.

dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq.¹¹

AQSH ning 43 – Prezidenti Jorj Bush esa inqirozni bartaraf etish uchun barcha choralari ko'rilishi va natijada jahon qitʼisodiyoti avvalgidan ancha kuchli ko'rinishga ega bo'lishini ta'kidlagan¹².

2008-yil oktabr oxirlarida iqtisod fanlar doktori Gavriil Popovning fikri nashr etildi. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy iqtisodiyotni bozor yoki Davlat reja tizimi emas, balki “spekulyantlarning korporatsiyasi” boshqarmoqda: “ Kredit va ipoteka – bu “spekulyantlar korporatsiyasi” ning bizning kelajag daromadlarimizga aralashuvdir. Ular bizning kelajagimizga aralishdi va buning orqasidan boylik orttirishdi”. Shu bilan birga G. Popov inqirozga qarshi kurashda taklif etilayotgan banklar va korporatsiyalarni milliyalashtirishga qarshi chiqmoqda¹³. Uning fikriga ko'ra, ular xususiy sektor qo'lida qolishi kerak.

Nyu-Yorkning Research jurnali sharhlovchisi Aleksey Bayer 2008-yil noyabr oyida ipoteka, kredit va xom-ashyo pufaklari portlaganidan keyin, AQSHning davlat qarzlari bozori barbod bo'lishini va bu AQSH ning nazoratsiz pul emissiyasiga, shuningdek global infilyatsiyaga olib kelishini ta'kidlagan.

Yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz sharoitida katolik cherkovi ham chetda turgani yo'q. 2008-yil 6-oktabrida Rim Papasi Benedikt XVI pul va moddiy boyliklarning behuda va foydasizligini quyidagicha ta'kidlagan “ Yirik banklarning sinishi pulning yo'q bo'lib ketishini, uning hech narsa emasligini ko'rsatadi. Real bo'lib ko'ringan ko'p narsalar, aslida ikkinchi darajalidir. ”

Shu tariqa yatish mumkinni, 2006-yilda AQSHda ipoteka uylari savdosining tushishi va 2007-yilda yuqori xavf-xatarli kreditlarning berilishi AQSH iqtisodiyotida muammolarga olib keldi. Vaqt o'tishi bilan ipoteka inqirozi

¹¹ I.A. Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T.2009.

¹² www.wikipedia.com


¹³ O'sha joyda

moliyaviy tus ola boshladi va nafaqat AQSH, butun jaxon iqtisodiyotiga xavf sola boshladi. Fond bozorlarida kotirovkalar tushishi boshlandi va kompaniyalarning qimmatli qog'ozlarni fond bozorlariga joylashtirib daromad olish imkoniyatlari qisqardi. 2008-yil boshidan inqiroz global ko'lamda rivojlana boshladi. U aksariyat mamlakatlarda ishlab chiqarishni qisqarishi, ishsizlikning oshishi, xom-ashyo talabi va narxini qisqarishida o'z ifodasini topdi.

2007-2010-yillarda mamlakatlar guruhlar bo'yicha o'sish sur'atlarini 1-diagrammada ko'rib chiqishimiz mumkun(1.2.-diagramma).

1.2.-diagramma

Mamlakatlar guruhlar bo'yicha o'sish sur'atlari dinamikasi



Manba: UNDP, www.undp.org/economic_crisis/overview.shtml, UN (2010), P. 4

Inqiroz kelib chiqishini quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

- Iqtisodiy rivojlanishning davriyligi.
- Kredit bozoridagi tartibsiz faoliyat va uning natijasidagi ipoteka inqirozi.
- Xom-ashyo narxining baland bo'lganligi.
- Fond bozoridagi haddan ortiq operatsiyalar.

G'arbdagi ko'plab mutaxassislar inqirozni iqtisodiy rivojlanishning davriyligi bilan bog'lashadi. Ya'ni iqtisodiyot to'liqsimon chiziq bo'ylab harakatlanadi va bu harakat davomida tushishlar bo'lib, ular vaqt o'tishi bilan o'sishlar bilan almashinadi va iqtisodiy sikl davom etadi. Jarayon xuddi spiral bo'ylab yuqoriga harakatlanadi va har safar tizimni yangi rivojlanish bosqichiga chiqaradi. Boshqa mutaxassislar guruhi esa, inqirozni 3-4 yil davom etishini, ba'zilar 8-10 yil davom etishini ta'kidlashadi. Marginal qarash vakillari inqirozni uzoq davom etishini, uning davriy emas, struktur xarakterga ega ekanligini ta'kidlashmoqda. Ularning fikriga ko'ra, bu iqtisodiy rivojlanish modelini almashtirish vaqti yetgan.

Yana bir xalqaro munozaraga sabab bo'layotgan mavzu – bu kelajak moliya dominantligini kim qo'lga kiritishidir. Taxminan 1971-yildan AQSH dollari oltin zahirasiidan ajratilganidan boshlab, Jaxon bozorini dollar umumiy oltin ekvivalenti sifatida egalladi. Dollar nafaqat xisob-kitob vositasi balki, jamg'arish vositasiga ham aylandi. Bu AQSHni amalda yagona global emissiya markaziga aylantirdi.

Shuningdek barchani qiziqtirayotgan yana bir masala, asosiy xom-ashyo tovarlariga, jumladan neftga xalqaro narx belgilash tizimini qanday bo'lishidir. Inqiroz sharoitida neft eksport qiluvchi davlatlar neftning narxining tushishi sabab katta miqdorda zarar ko'rishdi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bu yo'qotishlarning asosiy sababchisi ayrim G'arb va Osiyo birjalarining dominantligidan foydalanib, adolatsiz narx o'rnatishidir. Bu birjalarda narxni xom-ashyo yetkazib beruvchilar emas, balki xaridorlar belgilashi bilan bog'liq. Bundan tashqari bu birjalarda spekulyatsiya darajasi ham baland bo'lib, bu eksportyor davlatlarning iqtisodiy rivojlanishiga xavf soladi.

Xullas, XXI asrning ilk o'n yilligi eng katta iqtisodiy inqirozi bilan yakunlandi. 2008-yilda ko'plab rivojlangan mamlakatlarning asosiy makroiqtisodiy ko'rasatkichlarining keskin pasayishi va shu yilning oxirlarida vaziyatni global retsessiyaga olib kelishi jaxon iqtisodiyotida inqiroz yuzaga kelgani ko'rsatdi. Bu inqiroz jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi deb nomlandi.

1.2 Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etishda xalqaro hamkorlik

AQSH da yuzaga bankrotlik to'liqini katta tezlikda boshqa davlatlar va mintaqalarga tarqaldi. Bu albatta zamonaviy global iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi natijasidir. Barcha davlatlarning milliy iqtisodiyotlarini global iqtisodiyot zanjirining xalqalariga o'xshatish mumkun. Mana shu bog'liqlik yetakchi Yevropa davlatlari va boshqa mamlakatlar hukumatlarini inqirozga qarshi kurashda kuchlarini birlashtirishga sabab bo'ldi.

2008-yil 18-sentabr kuni “ Buyuk triada ” – Shimoliy Amerika, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya markaziy banklari 247 mlrd. dollarlik massiv intervensiya o'tkazishmoqchiligini e'lon qilishdi¹⁴. 2008-yil 4-oktabrida Yevropa Ittifoqida o'sha paytda rahbarlik vazifasini bajargan Fransiya Prezidenti Nikolya Sarkozi Parijda yetakchi davlatlar – Germaniya, Buyuk Britaniya va Italiya davlat rahbarlarini favqulodda majlisga chaqirdi. O'ziga xos inqirozga qarshi bu sammitda N. Sarkozi Yevropa moliya bozorini stabillashtirish rejasini taklif etdi. Rejada 300 mlrd. evro qiymatidagi umumiy Yevropa fondini tashkil etish ko'zda tutilgan edi. Fond muammoga duch kelgan Yevropa kompaniyalariga yordam berishi lozim edi. Yevropalik mutaxassislar “ Sarkozi rejasi ”ni AQSH da inqirozga qarshi chora sifatida ko'rilayotgan “ Polson rejasi ”ga o'xshatishdi. Ammo “ Sarkozi rejasi ” Silvio Berluskonining qo'llab-quvvatlashiga qaramay, Britaniya Bosh Vaziri Gordon Braun va Germaniya Kansleri Angela Merkel tomonidan rad etildi. Dastlab yirik Yevropa davlatlari inqirozdan o'z kuchlari bilan chiqa olishlariga ishonishdi. Faqatgina inqirozning kuchli ta'siri butun tizimni larzaga solganidan keyin, Yevropa Ittifoqi davlatlari o'z kuchlarini real birlashtirishga kirishishdi. Muzokaralardagi qarama-qarshiliklarga qaramay, unda “ O'sish va barqarorlik rejasi (*The Stability and Growth Pact*)” doktrinasi qabul qilindi.

¹⁴Р. И. ХАСБУЛАТОВ, “ГЛОБАЛЬНЫЙ ФИНАНСОВЫЙ КРИЗИС: ПРИЧИНЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ”

AQSHda esa bu vaqtda ta'kidlanganidek, " Polson rejasi " muhokamasi qizg'in ketayotgan edi. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi AQSH da yuzaga keldi va inqirozga qarshi choralar ham albatta AQSH da birinchi amalga oshirildi. 2008-yil 18-sentabrda AQSH Moliya Vaziri Genri Polsen Federal Rezerv Tizimi (FRT) va Kongress a'zolari bilan birgalikda AQSH kapital bozoridagi muammoli aktivalar va " tizimli xavf-xatarlar masalasini xal etish " ga oid reja ustida ishlayotganini ta'kidladi. Rejada muammoli aktivlarni sotib oluvchi Davlat korporatsiyasini tashkil etish ko'zda tutilgan edi. Polsen korporatsiyalarga 700 mlrd. dollar berishni taklif etdi. Bu korporatsiya 1980-yillar oxiridagi inqiroz paytida tashkil etilgan Resolution Trust Corporation andozasida tuziladi. 2008-yil 29-sentabrda AQSH Vakillar Palatasi tomonidan Polsen rejasi rad etilgan bo'lsa, 1-oktabrda Senat uni qabul qildi. 2008-yil 3-oktabrda esa rejani AQSH Kongressi ma'qulladi va 5-oktabrda Prezident unga imzo chekdi. Shundan so'ng korporatsiya tashkil etilishi boshlandi. Moliyaviy barqarorlik boshqarmasiga boshliq etib, Goldman Sachs Group Inc ning top-menejeri Ed Forst tayinlandi. 2008-yil 13-noyabrda Polson banklarning nolikvid ipoteka aktivlarini sotib olishdan voz kechishni taklif etdi, chunki bu ajratilayotgan mablag'larni samarasiz ishlatilishiga olib kelardi. 2008-yil 25-noyabrda esa, Genri Polson AQSH bank tizimiga FRT tomonidan 800 mlrd. dollar kritilishini va bu iste'molchilarni chakana kreditlashni rag'batlantirishga qaratilganini e'lon qildi. E'lon qilingan dastur mutaxassislarni pul manbasi jihatidan tushunmovchiligiga sabab bo'ldi, chunki bu darajadagi pul emissiyasi AQSH valuytasining devolvatsiyasiga olib kelishi mumkun edi. Jumladan dasturda FRT tomonidan uy-joy kreditlari federal banklari va Freddie Mac, Fannie Mae, Ginnie Mae kredit agentliklarining 600 mlrd. dollarlik kreditlari va kafolatlarini sotib olish nazarda tutilgan edi.

2008-yil 8-oktabrda Fransiyaning Evian shahrida o'tgan Jaxon siyosatiga bag'ishlangan konferensiya ("World Policy Conference 2008") da Rossiya

Prezidenti Dmitriy Medvedev ham qatnashdi¹⁵. Uning fikriga ko'ra, quyidagilarning amalga oshirilishi sharte edi:

- Xam milliy ham xalqaro boshqaruv institutlarini tartibga solish va tizimlashtirish;
- Investitsion dasturlarning real daromadliligi va chiqarilayotgan moliya vositalari o'rtasidagi jiddiy disbalansni yo'qotish;
- Xavf-xatarlarni boshqarish tizimini kuchaytirish;
- Reyting agentliklari va auditorlik kompaniyalari ma'suliyatini oshirish, nazorat talablarini oshirish va kompaniyalarning axborotlari ochiqligini ta'minlash;
- Kapitalning erkin harakatini ta'minlash va xalqaro savdo to'siqlarini olib tashlash.

2008-yil 8-oktabrida Yaponiya va Rossiya Markaziy Banklaridan tashqari Jaxonning barcha yetakchi Markaziy Banklari bir paytda qayta moliyalash foiz stavkalarini tushirishga kelishib olishdi. Jumladan FRT ning foiz stavkasi 2% dan 1,5% ga, Angliya, Kanada, Shvetsiya, Shveytsariya Milliy Banki va Yevropa Ittifoqi Markaziy Banklari foiz stavkalari 0,5% ga tushirildi. Mutaxassislar buni inqirozning naqadar keng ko'lamli ekanligi bilan bog'lashdi. 9-oktabrdan Janubiy Koreya, Tayvan va Gonkong Markaziy banklari ham foiz stavkalarini tushirishdi. 2008-yil 4-dekabrida Yevropa Markaziy Banki va Angliya Banki asosiy foiz stavkalarini sezilarli darajada tushirishdi. Xususan, Yevropa Markaziy Banki rahbariyati kutilayotgan 2,75 % stavkasi o'rniga, mavjud 3,25 % stavkasini 2,5 %ga tushirdi¹⁶. Angliya Banki esa o'z tarixida ilk bor, ya'ni 1694-yildan buyon kuzatilmagan foiz stavkasi pasaytirilishini namoish qildi. Foiz stavkasi 3 % dan 2 % ga tushirildi. Mazkur choralar xavf solayotgan deflyatsiya sababli ko'rildi.

¹⁵ www.polpred.ru

¹⁶ www.worldbank.org

2009-yil 2-aprelida G-20 ning Londondagi sammiti o'tkazildi. Unda global moliyaviy inqirozdan chiqish yo'llari rejasi muhokama qilindi. Jumladan, Xalqaro Valyuta Fondi zaxirasini 750 mlrd. dollargacha oshirishga qaror qilindi. O'z o'rnida Xalqaro Valyuta Fondi ham hukumatlarning inqirozga qarshi chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatladi. Tashkilot zarar ko'rgan davlatlarni moliyalashda faollik ko'rsatdi. 2008-yil oktabrida Belorussiya 2 mlrd. dollar kredit so'rab murojat qildi va 2009-yil 12-yanvarida Xalqaro Valyuta Fondi 2010-yil apreliga qadar 1,6 mlrd. SDR (Special Drawing Rates) miqdorida kredit liniyasini taqdim etdi. 2008-yil 24-noyabrida Pokistondan kelgan qarama-qarshi ma'lumotlarga qaramay Xalqaro Valyuta Fondi mamlakatga 2010-yil 23-oktabriga qadar 5,2 mlrd. SDR miqdorida kredit taqdim etdi. 2008-yilda eng yirik kredit liniyasi – 11 mlrd. SDR 2008-yil 5-noyabrida 2 yil muddatga Ukrainaga ajratilgan edi. 10,5 mlrd. SDR miqdoridagi kredit esa 2008-yil 6-noyabrida 2010-yil 5-aprelida qaytarish sharti bilan Vengriya taqdim etildi. Undan tashqari Latviyaga 1,5 mlrd. SDR, Islandiyaga 1,4 mlrd. SDR, Armeniyaga 368 mln SDR, Serbiyaga 351 mln. SDR, miqdorida kreditlar taqdim etildi.

10 – 13 - oktabr kunlari Vashingtonda “ Katta yettilik ” davlatlari va Rossiya (G-7 + Rossiya = G8) Moliya Vazirlari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda xalqaro ahamiyatdagi boshqa reja tasdiqlandi. Unda asosiy 5 ta ustuvor yo'nalish belgilandi:

- Tizim uchun muhim bo'lgan barcha moliya institutlarini bankrotlikka duch kelmasligi uchun mavjud barcha vositalardan foydalanish;
- Kredit va pul bozorlari faoliyatini yaxshilash uchun barcha choralarni ko'rib chiqish, banklar va boshqa moliya institutlarini likvidlik va moliyalashtirish uchun erkin yo'lni kafolatlash;
- Banklarni ishonchni qozonish, biznes va jismoniy shaxslarni kreditlash faoliyati uchun yetarli darajada mablag' jalb qilishi uchun barcha imkoniyatlarni

yaratib berish. Kapital davlat yoki xususiy mulklar evaziga shakllantirilishi mumkun;

- Omonatlarni sug'urtalash milliy dasturlari ishonchliligini davlat kafolatlari tizimi orqali ta'minlash;
- Ipoteka va qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorlarini qayta faoliyat yuritishi uchun ko'maklashish.

Breton-Vud kelishuvlari doirasidan ancha chetga chiquvchi reja yo'nalishlari, butun moliya tizimini boshqa sifatdagı rivojlanish vektoriga o'tayotganligidan darak beradi. Bu G-7 sammitida qabul qilingan qarorlar e'lon qilinganidan keyin yaqqol o'z tasdig'ini topdi. Jumladan, "yettilik" moliya vazirlari tomonidan butun jaxon moliya tizimi arxitekturasini qayta qurilishini e'tirof etuvchi qarorlar qabul qilindi. Buni 3 ta asosiy bo'limda ko'rib chiqish mumkun:

1. 2009-yil 30-apreliga qadar barcha milliy banklar tizimi uchun AQSH Federal Rezerv Tizimi, Yevropa Markaziy Banki, Angliya Banki, Shveytsariya Markaziy Banklari tomonidan hamma cheklovlarni bekor qilinishi. Bu qaror e'lon qilinganidan bir soat o'tib, unga Yaponiya Banki xam qo'shildi;
2. Yuqorida nomi keltirilgan barcha banklar zudlik bilan cheklovsiz auksionlar o'tkazishini e'lon qildilar. 14-oktabr kuni 7 kun muddatga Angliya Banki, 15-oktabrda shu muddatga Shveytsariya va Yaponiya Banklari va shu kundan Yevropa Markaziy Banki garovli kreditlar auksioni haftalik dasturlarini o'tkazishini e'lon qilishdi.
3. Yevropa Markaziy Banki 2009-yil yanvar oyiga qadar likvidlik muammosini bartaraf etishga qaratilgan cheklanmagan dollar qiymatidagi mablag'lar taklif qilishini e'lon qildi.

Yevropa Ittifoqining yetakchi 15 ta davlati (15-nation euro region) Prezidentlari va davlat rahbarlari ishtirokida 2008-yil 12-oktabrda Parijda sammit

o'tkazildi¹⁷. Unda davlat kafolatlari tizimini joriy etish, muammoga duch kelgan moliya institutlarini qo'llab-quvvatlashga doir choralar belgilandi. Xususan, banklararo kreditlar bo'yicha kafolatlarni 5 yilgacha bo'lgan muddatga berish, hukumatlarning banklarni qo'llab-quvvatlashda banklarni imtiyozli aksiyalarini sotib olishi, muammoga to'qnashgan tizim xosil qiluvchi banklar rekapitalizatsiyasida budget mablag'lari sarflanishi ko'zda tutilgandi. 2008-yil 13-oktabrida Yevropa Markaziy Banki, Angliya banki va Shveytsariya Markaziy Banklari AQSH Federal Rezerv Tizimi bilan kelishilgan valyuta svop shartnomasiga asosan 2008-2009-yillarda yuzaga keladigan dollar talabini qoplashlarini e'lon qilishdi va shu kuni Britaniya Bosh Vaziri Gordon Braun "yangi Breton-Vuds" ni tashkil etishni taklif qildi. 2008-yil 14-oktabrida esa AQSH hukumati moliya tizimini barqarorlashtirish uchun unga 250 mlrd. dollar ajratilishini ko'zda tutuvchi "najot rejasi"ni qabul qildi. Jumladan, uning bir qismini yani 125 mlrd. dollarni Bank of America Corp, Wells Fargo, Citigroup, JPMorgan Chase & Co, Goldman Sachs, Morgan Stanley va Bank of New York Mellon Corp kabi 9 ta bankning ulushini sotib olishga sarflash belgilangandi. Bu AQSH tarixida kuzatilmagan voqea. U banklarni qisman bo'lsada milliyashtirishni ko'zda tutardi. Xatto, Genri Polson ham buni "nojo'ya reja" deb atab, shu bilan birga uni iqtisodiyotni jonlantirish uchun juda zarur deb aytdi.

Ommaviy axborot vositalarida ba'zan "Bretton-Woods II" deb nomlangan G-20 ning 2008-yildagi jaxon moliyaviy inqiroziga oid masalalarni muhokama qilish uchun Vashingtonda 14-15-noyabr kunlari o'tkazgan "Inqirozga qarshi sammit" i haqida batafsil to'xtalsak. Ta'kidlash joizki, jaxon yalpi ichki maxsulotining 90 % i, jaxon savdosining 80 % i va jaxon aholisining 2/3 qismi G-20 davlatlariga to'g'ri keladi. Yuqori darajadagi uchrashuvlar Fransiya Prezidenti Nikolya Sarkozi va Britaniya Bosh Vaziri Gordon Braun tashabbusi bilan o'tkazildi. Sammitda 21 davlat va 5 ta Xalqaro tashkilot vakillari ishtirok etdilar:

¹⁷ news.bbc.co.uk/2/hi/2817995.stm (Accessed on 01.03.2010)

Avstraliya, Argentina, Braziliya, Hindiston, Indoneziya, Kanada, Meksika, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Afrika Respublikasi, Janubiy Koreya, Ispaniya (Yevropa Ittifoqi nomidan qatnashdi),Niderlandiya (Yevropa Ittifoqi nomidan qatnashdi), Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Fransiya, Rossiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Brilashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Jaxon Banki, Xalqaro Valyuta Fond, Moliyaviy Barqarorlik Fondi.

Sammit davomida G-20 davlatlari o'rtasida moliyaviy inqiroz oqibatlarini yumshatishda asosiy sohalarda hamkorlik qilish, moliya institutlarini qayta tashkil etishda asosiy prinsiplar va kelgusida bunday inqirozlarni oldini olishga qaratilgan choralar borasida kelishib olindi va bu kelishuv sammit deklaratsiyasida o'z aksini topdi. Unda jumladan quyidagilar belgilandi:

- Ichki talabni jonlantirish uchun moliyaviy mexanizmlardan foydalanish;
- Alohida mamlakatlarning ichki iqtisodiy shartlaridan kelib chiqib, pul siyosatini qo'llab-quvvatlash;
- Yuzaga kelgan murakkab sharoitda, rivojlanayotgan va qoloq davlatlar iqtisodiyotlarga moliyaviy ko'mak olishlariga yordam berish;
- “ Moliya tizimini barqarorlashtirish yo'lida fidokorona urinishlar va choralar ko'rishni ” davom ettirish.

Rossiyaning “ Ведомости ” nashrining 2008-yil 17-noyabrdagi sonida sammit yakunlari haqida quyidagilar keltirilgan: “Sammit deklaratsiyasida inqirozga qarshi aniq, lekin inqilobiy bo'lmagan choralar belgilangan ... Sammit asosiy moliyaviy institutlar - Xalqaro Valyuta Fondi va Jaxon Bankini qayta isloh qilish kerakligini va ularni inqirozga qarshi kurashda rolini oshirish kerakligini ko'rsatdi. Xalqaro Valyuta Fondi va Jaxon Bankini qayta isloh qilish uning boshqaruvida rivojlanayotgan davlatlar o'rnini ko'paytirishni ko'zda tutsa, inqirozga qarshi kurashda rolini oshirish deganda, inqiroz sharoitidagi davlatlarga moliyaviy yordam hajmini ko'paytirish va yordam ajratish tartiblarini

soddalashtirish nazarda tutilgan ”. Nashr bevosita belgilangan vazifalarni qanday bajarilishiga ham baho berib o'tgan. Jumladan, 2009-yil 28-yanvardagi nashr sonida, davlat rahbarlari Vashingtondagi uchrashuvdan so'ng baribir mamlakatlar inqirozga qarshi alohida olingan hududlarda kurashib, birinchi navbatda sammitda kelishilgan proteksionizmdan voz kechish kelishuvini buzganliklari ma'lum qilindi.

Rossiya Iqtisodiy Rivojlanish Vazirligi¹⁸ mutaxassislari 2008-yil noyabridan 2009-yil yanvariga qadar mamlakatlar o'tkazgan inqirozga qarshi choralarda, xususan, Xitoyda – 19 ta, Hindistonda – 4 ta, Yevropa Ittifoqi, Vyetnam va Janubiy Koreyada – 2 tadan proteksionistik choralar qo'llanganini aniqlashdi. Bu kabi inqirozga qarshi dasturlarda BMT va Xalqaro Savdo Tashkiloti qoralaydigan savdo to'siqlari ko'zda tutilgan edi ” deya ta'kidlangan. O'tgan sammit borasida davlat rahbarlari esa quyidagi fikrlarni bildirishdi:

Venesuela Prezidenti Ugo Chaves: “ Vashingtonda o'tgan G-20 sammiti vaqtning behuda sarflanishidir ”,- degan bo'lsa, AQSH Prezidenti Jorj Bush: “ Biz hamkorlikda ish olib borib, global iqtisodiyotni yana uzoq muddatli rivojlanish yo'liga qaytarishimizga ishonamiz ”- deb ta'kidlab o'tdi.

¹⁸ www.minekonomrazvitie.gov

II-BOB. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI SHAROITIDA TURKIYADA MAKROIQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

2.1. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Turkiyadagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Turkiyaga ta'sirini o'rganishda, avvalo, Turkiya iqtisodi haqida to'xtalib o'tish lozim. Geografik joylashuvuvi juda qulay bo'lib, mamlakatdan dunyoning istalgan hududiga yo'l olish mumkun. Shimolda Qora dengizga, g'arbda Egey dengiziga, janubda O'rta Yer dengiziga chiqish imkoniyati mavjud. Mamlakatning umumiy maydoni – 783,582 km² bo'lib, u Kichik Osiyo yarim orolida joylashgan. Hududining 97 % i Osiyo qit'asiga, 3% i Yevropa qit'asiga to'g'ri keladi. Bu uning tranzit mamlakat sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Mamlakat hududidan mavjud barcha transport turlarida yuk tashib o'tiladi. Aholisi soni 2010-yilda 77,7 mln. bo'lib, aholining 70,5 % i shaharda, 29,5 % i qishloq hududlarida istiqomat qiladi. Mamlakatda 15 ta aholisi milliondan oshuvchi shahar mavjud¹⁹.

Turkiya iqtisodi yetarli darajada rivojlangan sanoat tarmog'i, zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmog'i va an'anaviy qishloq xo'jaligi yig'indisidan iborat. Zamonaviy Turkiyada xususiy sektor jadal rivojlanayotgan bo'lsada, davlat hali ham asosiy tarmoqlar – bank tizimi, sanoat, transport va kommunikatsiya sohalarining asosiy ishtirokchisi sanaladi. Mamlakatda yengil sanoati nisbattan yaxshi rivojlangan.

Mamlakat iqtisodi 1994, 1999, 2001-yillarda inqirozlarni boshdan o'tkazganiga qaramay, mamlakat YaIM i qator yillar davomida 9 - 4 % dan o'sib kelgan. 2004-yildan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida o'sish sur'atlari ta'minlanib, iqtisodiyot ancha mustahkamlandi. Ammo rivojlanishga

¹⁹ И.Свистунова: Экономика Турции в условиях мирового финансового кризиса. 02.12.2008

to'sqinlik qiluvchi kapital yetishmovchiligi, turk banklarining davlat qarzlarining 80 % ini moliyalashiga olib kelmoqda. Mamlakat valyuta tizimi ham yetarli darajada barqaror emas. Bu mamlakatning turizm sektoriga yuqori bog'liqligi bilan izohlanadi.

Turkiya tashqi savdosining asosiy ko'rsatkichlari tahlili, tashqi qarzlarining ko'pligi yoki tashqarida katta hajmda valyuta kirishi bilan izohlanuvchi to'lov balansining salbiy saldosi kuzatiladi. Asosiy import mahsulotlari bu gaz, neft, rangli va qora metalurgiya mahsulotlari, o'rmon xom-ashyosi va yog'och mahsulotlaridir. Asosiy eksport mahsulotlari esa tekstil mahsulotlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlangan metal mahsulotlari va turli shisha-oyna mahsulotlaridir.

Turkiyaga asosiy sarmoya kirituvchi davlatlar azaldan Germaniya va Buyuk Britaniya xisoblanadi, lekin so'nggi paytda AQSH va Niderlandiya ham Turkiyaga qiziqish bildirmoqda. Mamlakatning ichki qarzlarini 2007-yil oktabrida 257,5 mlrd turk lirasini tashkil etgan bo'lsa, tashqi qarzlarini 226,4 mlrd. AQSH dollariga teng. Tashqi qarzдорlik YAIM ning 35 % ga teng²⁰. Mamlakat iqtisodiyoti haqida yanada to'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni yoritib bergan 2.1.-jadvalni ko'rib chiqishimiz mumkun.

Raqamlar real pul miqdorida quyidagi ko'rinishga ega²¹:

2008-yilda YaIM miqdori 731,1 mlrd. dollarni tashkil etib, jon boshiga milliy daromad miqdori 14,041 dollardan to'g'ri kelgan. 2009-yilda esa YaIM miqdori 607,9 mlrd. dollarni tashkil etdi va jon boshiga milliy daromad 13,136 dollardan to'g'ri keldi. Iqtisodiyotdagi qisqarish albatta butun tizimga salbiy ta'sir etdi. Dastlab Turkiyaning mehnat bozoridan ishsizlik muammosi yuzaga kelgani haqida negativ statistik ma'lumotlar kela boshladi.

²⁰ www.tursab.org.tr TEPAV; Türkiye Ekonomi Politikaları Araştırma Vakfı (TEPAV); 2007-08 Küresel Finans Krizi ve Türkiye: Etkiler ve Öneriler

²¹ CNN;// www.money.cnn.com

2.1.-jadval

2004-2009-yillarda Turkiyadagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar
dinamikasi

Ko'rsatkichlar/yillar	2004	2005	2006	2007	2008	2009*
Aholisi	67,734	68,582	69,421	70,256	71,079	71,897
YaIM o'sish sur'atlari (%)	9,4	8,4	6,9	4,7	0,9	-6
YaIM miqdori (mlrd. \$)	393	483,9	530,6	647,9	731,1	607,9
Jon boshiga milliy daromad miqdori (\$)	10,137	10,386	12,688	13,455	14,041	13,136
Ishchi kuchining qatnashish darajasi (%)	46,3	46,4	46,3	46,2	46,9	47,6
Fuqarolarning ish bilan ta'minlanganligi (ming kishi)		20,067	20,423	20,738	21,194	20,959
Ishsizlik darjasi (%)		10,6	10,2	10,3	11	14,8
Umumiy iste'mol (o'zgarish %da)	10,4	7	5	5,2	-0,2	-2,3
Kapital investitsiyalari (o'zgarish %da)	27,4	17,8	13,4	4,4	-3,7	-17,2
Eksport	63,2	73,5	85,5	107,3	132	98,5
Import	97,5	116,8	139,6	170,1	202	134
Iste'molchi narx indeksi (%)	9,4	7,7	9,7	8,4	10,1	5,9


Manba: September 2009, State Planning Organization; 2010 Annual Programme, ANKARA – 2010, P. 4

Turkiya hukumati Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari namoyon bo'lguniga qadar inqiroz Turkiyani chetlab o'tishini, agarda inqiroz ta'sir etsa ham bu sezilarli bo'lmasligini ta'kidlab keldi. Inqirozning salbiy ta'siri 2009-yil 1-choragidan boshlab namoyon bo'la boshladi. Bundan oldin Turkiya 2001-yili inqirozni boshidan o'tkazib, o'sish sur'ati -5,7 %ni tashkil etgan edi. Ammo keyingi 7 yil davomida iqtisodiyotning o'sishi kuzatilgan. Jumladan, 2002-yilda o'sish sur'ati 6,2 % ni, 2003-yilda 5,3 % ni, 2004-yilda 9,4 % ni, 2005-yilda 8,4 % ni, 2006-yilda 6,9 % ni, 2007-yilda 4,5 % ni, 2008-yilda 0,9 % ni tashkil etgan.

2009-yildagi 6 % lik pasayish bilan bu o'sish davri barham topdi. Turkiya iqtisodi 2009-yil birinchi choragida o'tgan yilga nisbatan 14,7 % ga, ikkinchi choragida 7,9 % ga, uchinchi choragida 2,8 % ga qisqarib, faqat so'nggi chorakdagina biroz tiklana boshladi va o'sish sur'ati 5,9 % ni tashkil etdi. (2.1.-diagramma)

2.1.-diagramma

2002-2009-yillarda Turkiyadagi iqtisodiy o'sish sur'atlari



Manba: September 2009, State Planning Organization; 2010 Annual Programme, ANKARA – 2010, P. 4

Iqtisodiyotdagi qisqarish albatta butun tizimga salbiy ta'sir etdi. Dastlab Turkiyaning mehnat bozoridan ishsizlik muammosi yuzaga kelgani haqida negativ statistik ma'lumotlar kela boshladi.

Jumladan, 2009-yil boshida Turkiya iqtisodiy siyosat ilmiy tadqiqot instituti – TEPAV²² bergan ma'lumotga ko'ra, Turkiyaning g'arbiy va janubiy sanoat hududlaridagi yirik kompaniya ishchilari birinchilardan bo'lib o'z ish o'rinlaridan

²² TEPAV; Türkiye Ekonomi Politikaları Araştırma Vakfı (TEPAV)

ajralishgan. Shuningdek, 2008-yil 3-choragiga qadar 10 % bo'lib turgan ishsizlik darajasi, 2009-yil 1-choragida 16,1 %, 2-choragida 13,6 % ni tashkil etdi. Bu davrda ishsizlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 838 ming kishiga o'sib, jami 3,274 mln. kishini tashkil etdi. Aytish lozimki, 2008-yilda ishsizlik darajasi 11 % ni tashkil qilgan va 2009-yilda oylar bo'yicha quyidagi ko'rinishda bo'lgan: yanvar – 15,5 %, fevral – 16,1 %, mart – 15,8 %, aprel – 14,9 %, may – 13,6 %, iyun – 13 %, iyul – 12,8 %, avgust- 13,4 %.ni, sentabr oyida ishsizlik darajasi 13,4 % ni tashkil etib, mehnatga layoqatli aholining 22 mln. i ishga yollanib, 3,39 mln. kishi ishsiz bo'lgan. CNN Turk²³ tarqatgan ma'lumotga ko'ra mazkur ishsizlik darajasi Turkiya respublika deb e'lon qilingan davrdan buyon eng yuqori ko'rsatkichdir.

Ta'kidlanganidek, dastlab yirik kompaniyalar ishchilari ish o'rinlaridan ayrilishgan bo'lsa, keyinchalik ishdan bo'shatish to'liqini xodimlar soni 100 tadan ortmaydigan kichik korxonalarga ham yetib bordi. 2009-yil birinchi choragida bunday korxonalarda shtat qisqartirilishi darajasi sezilarli bo'lmay, 2-chorakda bu ko'rsatkich 12 % ni tashkil etdi. Inqiroz butun Jahonda hukm surayotgan davr albatta xorijda ishlaydiganlarga ham muammolar yaratdi. Jumladan, 2009-yil 1-yarim yilligida xorijda ishlaydigan yollanma ishchilar soni keskin qisqargan. Xususan, 2009-yilda xorijga ishga ketganlarning soni – 20226 kishini tashkil etib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 marta kam demak. Turkiya bandlik tashkiloti – IŞKUR bergan ma'lumotga ko'ra, turk gastarbayerlarining katta qismi Rossiya, Yaqin Sharq va O'rta Osiyoda mehnat qilishadi. Avvallari gastarbayerlar ishlashga ketadigan asosiy mamlakat Germaniya edi, hozirda esa Rossiyadir. Rossiyaga 2009-yil dastlabki 7 oyi davomida 4480 ta turk fuqarosi ishlashga ketgan. Ammo bu ko'rsatkich inqirozdan avval 12 mingni tashkil etgan edi. Rossiyadan keyingi o'rinlarda Liviya, Saudiya Arabistoni va Turkmaniston joylashgan va faqatgina 20 ta fuqaro shu muddat davomida AQSH ga ishlashga ketganligini ta'kidlash mumkun²⁴.


²³ www.cnnturk.com.tr

²⁴ И.Свистунова: Экономика Турции в условиях мирового финансового кризиса. 02.12.2008

Shuningdek Turkiya statistika instituti – TUIK ma'lumotiga ko'ra, inflyatsiya o'sish sur'ati 2009-yilda iqtisodiy inqiroz sababli qisqardi. 2008-yil noyabrda inflyatsiya o'sish sur'ati ishlab chiqaruvchi narxlarida 12,25 % ni, xaridorlar narxlarida 10,76 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2009-yil noyabrda ishlab chiqaruvchi narxlarida 1,51 % ni, xaridorlar narxlarida 5,53 % ni tashkil etdi.

2.2.-diagramma

2009-yil birinchi uch choragida ishsizlik darajasining dinamikasi (%)



Manba: www.tuik.tr, Turkish Statistical Institute

Shuningdek 2008-yil oktabr oyida sanoat ishlab chiqarishi sur'atlari 6,8 % ga qisqardi. 2009-yil fevralida 23,8 % lik rekord pasayishdan keyin, iyulda 9,2 % lik pasayish kuzatildi. Bu 2008-yilga ko'rsatkichiga nisbatan pasayish davom etayotgan 12-oy bo'ldi. Bir qator turk nashriyotlari ANKA axborot agentligi

ma'lumotiga asoslanib, 2009-yil avgust oyida umumiy sanoat ishlab chiqarishi 6,3 % ga qisqarganini e'lon qildilar. Qayta ishlash sanoatida 7,2 %, energetika sanoatida 3,6 % lik qisqarish kuzatilayotgan bir davrda, katta darajada bo'lmasada, 0,6 % lik o'sish qazib olish sanoatida kuzatildi. Shuningdek, oziq-ovqat sanoati 1,7 % ga, tekstil sanoati 2,9 % ga, tog'-kon sanoati 9,8 % ga, investitsion mahsulotlar ishlab chiqarish 15,8 % ga, oraliq mahsulotlar ishlab chiqarish 5,2 % ga pasaygan bo'lsa, mebel va uzoq muddatli foydalanish maxsulotlari ishlab chiqarish 11,5 % ga o'sdi.

Bundan tashqari toshko'mir qazib olish sanoati, transport vositalari va neft mahsulotlari ishlab chiqarish ham sezilarli darajada qisqardi. Turkiya statistika instituti – TurkStat²⁵ bu ma'lumotlarni taqdim etar ekan, ichki va tashqi bozorda talabning yetishmayotganligini ishlab chiqarishdagi qisqarishlarga sabab sifatida ko'rsatmoqda. Jumladan statistik ma'lumotlarga ko'ra, ichki talabning qisqarishi ishlab chiqarishni 52,2 % ga, tashqi bozordagi talabning qisqarishi 29,8 % ga qisqartirgan bo'lsa, moliyaviy muammolar 3,7 % ga, ichki xom-ashyo yetishmasligi 3,6 % ga, ishchilar bilan muammolar 1,2 % ga ishlab chiqarish sur'atlarini qisqarishiga sabab bo'lgan. 2009-yil avgustida yalpi ishlab chiqarish o'tgan oyga nisbattan 2,6 % ga qisqardi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,3 % ga qisqarib, mahsulotlar narhi 1,4 % ga, xom-ashyo narhi 2,1 % ga o'sdi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish kaefitsenti o'tgan yilning shu davriga nisbattan 6,5 % ga qisqarib, 2009-yilda 69,7 % ni tashkil etdi. 2008-yilda esa bu ko'rsatkich 76,2 % ni tashkil etgan.

Inqiroz sababli Turkiyaning asosiy daromad keltiruvchi sektori – turizm va mehmonxona biznesi ham sezilarli zarar ko'rdi. 2009-yil yanvar-sentabr oylarida Turkiyaga 7,08 mln. xorij fuqarosi tashrif buyurdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbattan 4,8 % ga kamaygan. Bu davrda tashrif buyurganlarning 1,98 mln. i Rossiya fuqarosi bo'lib, sayohlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbattan 3,3 % ya'ni 63,8 ming kishiga kamaygan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra shu davr

²⁵ Гриняев С.Н. Центр стратегических оценок и прогнозов, Аналитический доклад. М.2009// www.csef.ru

mobaynida Turkiyaga Ukrainadan tashrif buyuruvchilar soni 24 % ga, Isroildan keluvchilar soni esa 47 % ga qisqargan. Sayohlar sonining qisqarishi tabiiy ravishda dam olish mavsumining bir oy oldin yopilishiga sabab bo'ldi. Jumladan, Antaliyadagi mehmonxonalarning 80 % oktabrda yopildi. Antaliya mehmonxonalarining xodimlari davriy yollanma ishchilar bo'lib, mehmonxonalarning yopilishi 250 mingta ishchining ishsiz qolishiga olib keldi.

Turkiya iqtisodini avtomobil ishlab chiqarish va uni sotish vositasida jonlantirishi mumkun bo'lgan avtomobilsozlik sanoati ham inqiroz davrida og'ir kunlarni boshdan o'tkazishga majbur bo'ldi. Jumladan, 2009-yil avgustida xorijga avtomobil sotish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 % ga qisqarib, avtomobilsozlik kompaniyalari 973,7 mln. dollar daromad ko'rishdi. O'tgan yilning shu davrida kompaniyalar 1,37 mlrd. dollar daromad ko'rishgan edi. Avtomobil eksporti tarkibini ko'radigan bo'lsak, 2009-yilning birinchi sakkiz oyligida avtomobil eksporti 45,5 % ga qisqarib, ishlab chiqaruvchilar eksportdan 9,4 mlrd. dollar daromad ko'rishdi. 2008-yilning shu davrida ular 17,3 mlrd. dollar daromad olishgan edi. Turkiya avtomobillari 163 ta davlat va avtonom viloyatlar, 13 ta erkin savdo hududiga yetkazib beriladi. Turk avtomobillari asosan Yevropa mamlakatlari – Fransiya, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya va Belgiyaga, 2008-yil avgustidan boshlab Chad, Maldiv, Fidji, Gambiya va Dog'iston mamlakatlariga sotiladi.

Inqiroz sharoitida tashqi savdo quyidagi ko'rinishda bo'ldi. Xalqaro savdolarining qisqarishi bilan tabiiyki, Turkiya eksporti ham qisqardi. Turkiya eksportchilarining ma'lumotiga ko'ra, 2009-yilning o'n bir oyida Turkiya eksporti 87,6 mlrd. dollarni, 12 oyi bo'yicha esa 98,5 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2008-yilda 132 mlrd. dollar bo'lgan. 2008-yilda qariyb 202 mlrd. dollarni tashkil etgan import, inqiroz sababli 66 % ga qisqardi va 134 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyatdagi qisqarishlar davlat budjetida ham negativ ta'sir etdi. Daromadlarning qisqarishi soliqlar tushumining ham qisqarishiga olib keldi. 2008-

yilda budget daromadlari 209,598 mln. turk lirasini, xarajatlar 227,031 mln. turk lirasini tashkil etib, 17,432 mln turk lirasi miqdorida defitsit kuzatilgan. 2009-yilda esa budget daromadlari 175,368 mln. turk lirasini, xarajatlar 218,6 mln. turk lirasini tashkil etib, 43,232 mln. turk lirasi miqdorida budget taqchilligi kuzatildi. Soliq tushumlari 2008-yilga nisbattan 0,8 % ga pasayib, 139,2 mlrd. turk lirasini tashkil etdi.

Markaziy Bank ma'lumotiga ko'ra, 2009-yil yanvar-oktabr oylarida to'lov balansi defitsiti 79,4 % ga qisqarib, 7,9 mlrd. dollarni tashkil etdi. Solishtirish uchun 2008-yilning shu davrida defitsit 38,31 mlrd. dollar, yil yakunida 41,41 mlrd. dollar bo'lganligini ko'rish mumkun. 2009-yil dekabr boshida Markaziy Bankning xorij valyutasidagi aktivlari 2008-yildagi 73,34 mlrd. dollardan 2,3 % ga o'sib, 75,04 mlrd dollarni tashkil etdi. 2009-yil oktabr yakunlarida Turkiya ichki qarzlar miqdori 2008-yilning shu davridagi miqdor – 274,82 mlrd. turk lirasidan 19 % ga ko'payib, 327,18 mlrd. turk lirasini tashkil etdi. 2009-yil dekabr oyi boshlarida 10,81 mlrd. dollarlik tashqi qarzlar to'langani xisobidan, tashqi qarzlar miqdori 2008-yilgi 278,14 mlrd. dollardan 268,55 mlrd. dollarga kamaydi. 2008-yilda esa 15,72 mlrd. dollar miqdoridagi qarzlar qoplangan edi. Markazi Bank ma'lumotiga ko'ra, 1,5314 turk lirasiga sotilgan AQSH dollari, 2009-yil 15-dekabrida 1,2 % ga tushib 1,5126 turk lirasiga baholandi. Evro esa 2009-yil boshidagi 2,1467 turk lirasidan, 2,5 % ga o'sib, 2,2002 turk lirasiga baholandi. Muomaladagi turk lirasi hajmi 2009-yil 14-dekabr holatida 31,9 mlrd. turk lirasidan, 38,7 mlrd. turk lirasiga oshgan. Hukumat obligatsiyalari foiz stavkasi 2008-yilda 16 % va 21 % oralig'ida bo'lgan bo'lsa, 2009-yilda 9 % va 21 % oralig'ida bo'ldi. Shuningdek turk banklaridagi depozitlar 2008-yildagi 410,6 mlrd. turk lirasidan 9,5 % ga ko'payib, 449,8 mlrd turk lirasiga yetgan. Kreditlar hajmi ko'payganini ham ta'kidlash lozim. Jumladan, 2008-yilda kreditlar hajmi 284,3 mlrd. turk lirasini tashkil etgan bo'lsa, 2009-yilda 307 mlrd. dollarga oshgan. Mamlakatning oltin valyuta zaxiralari 2005-yildan 2007-yil o'rtalariga qadar, 52 mlrd. dollardan 77 mlrd. dollargacha ko'paygan. Markaziy Bankning 2008-yil 13-

noyabridan 14-noyabriga o'tar kechasi bergan ma'lumotiga ko'ra, mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari 1,25 mlrd. dollarga qisqarib, 72,568 mlrd. dollarni tashkil etgan. Bundan kelib chiqadiki, 13-noyabr xolatida oltin-valyuta zaxiralari 73,818 mlrd dollar bo'lgan. Oltin-valyuta zaxiralari quyidagi strukturaga ega: 3,272 mlrd. dollar oltin ko'rinishida, 69,296 mlrd. dollari esa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida. 2009-yil iyul boshida oltin-valyuta zaxiralari 64,889 mlrd. dollarni tashkil etdi. Turk banklaridagi xorijiy valyutadagi qo'yilmalar 2008-yil noyabr oyiga kelib 406 mln. dollarga ko'payib, jami 104,59 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Yuqorida ta'kidlangan ko'rsatkichlar jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining bevosita Turkiyadagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini izohlaydi.

2.2. Turkiyada Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari

Inqiroz oqibatlarini yumshatish, xamda inqirozning asoratlarini bartaraf etish maqsadida, Turkiya hukumati Xalqaro Valyuta Fondidan yordam olish, chet el investitsiyalarini jalb qilish, soliq yuklarini qisqartirish, imtiyozlar berishga qaratilgan tadbirlarni qo'llashini e'lon qildi. Tashqi omil bo'lib kelgan inqiroz, vaqt o'tishi bilan Turkiyada inqirozgacha mavjud bo'lgan muammolar bilan bog'lanib ketdi. Bundan tashqari inqiroz davrida yuzaga kelgan sarosima, vaziyatni yanada og'irlashtirdi. Bunday vaziyatda turk hukumati tabiyki inqirozdan chiqish choralarini ishlab chiqa boshladi. Jumladan, 2009-yil 18-fevralida 5838-sonli qonunni e'lon qildi²⁶. Unda iqtisodiyotni qaytadan tiklash va ishsizlikka qarshi kurash maqsadida ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish belgilangandi.

Qabul qilingan choralarning bir qismi xususiy iste'molni bilvosita va bevosita oshirishga qaratildi. Jumladan, 5838-sonli qonunga asosan Vazirlar Kengashi 2009-yil 17-martidan 15-iyuniga qadar kuchda bo'lgan, 2009/14082-

²⁶ Act No 5838 of 18.02.2009 "Amendments in Some Acts"

sonli QQS solig'i va ba'zi to'lovlar borasida imtiyozlar berishga qaratilgan qarorini e'lon qildi. Unda quyidagilar belgilandi:

- Korxonalar transport vositalari uchun ikkinchi darajali to'lovlar 10 % dan 1 % ga va xususiy transport vositalari uchun motor quvvatiga qarab 4 % dan 19 % gacha deb belgilandi;
- 6,7 % lik uy jihozlari va boshqa elektron maishiy xizmat mahsulotlari to'lovi butunlayin olib tashlandi;
- Shuningdek, quyidagilar QQS i 10 % ga kamaytirildi: a) simli va simsiz kommunikatsiya, mobil internet xizmatlari uchun; b) maydoni 150 m² dan ziyod binolar savdosi uchun; c) mebel jihozlari uchun; d) kompyuter va boshqa shunga o'xshash jihozlar uchun; e) yerni ro'yhatdan o'tkazish to'lovlari uchun.

Bundan tashqari qonun hujjatida kam daromadli aholining daromadlarini oshirishga qaratilgan quyidagi choralar ham belgilandi:

- 5763-sonli qarorda ishsizlik bo'yicha belgilangan nafaqa pullarini xisoblash tartibini o'rtacha 11 % deb o'zgartirish;
- daromad davrini 3 oydan 6 oyga uzaytirish va qisqa ish vaqti nafaqalarini 50 % ga oshirish.

Shuningdek, 5838-sonli qonunda yangi avtomobillar savdosini qo'llab-quvvatlash maqsadida, 1979-yil va undan eski yillarda ishlab chiqarilgan avtomobil egalariga eski mashinalardan voz kechish sharti bilan ularni harakatlanish qoidalarini buzganlik uchun jarimalardan, transport solig'idan, transport vositasi to'lovini vaqtida to'lamaganlik uchun jarimalardan ozod qilish ham belgilangan. Bundan tashqari xususiy iste'mol uchun banklar yoki boshqa moliya institutlari tomonidan beriladigan kreditlarning resurslardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash fondi to'lovlari 5 % ga tushirildi.

Hukumat biznesni tiklash va sarmoyalarni ko'paytirish maqsadida ham ish olib bordi. Bunda e'tibor global bozordagi murakkab kreditlash sharoitlarini yumshatish maqsadida, Turkiyaning xorijdagi pul qo'yilmalarini jalb qilib, biznes yuritish xarajatlarini to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita kamaytirishga qaratildi.

Jumladan, xorijdagi qo'yilmalarni mamlakatga jalb qilish maqsadida, xorijiy kapitalga nisbattan soliqlarni qisqartirish va olib tashlashni belgilagan 5811-sonli qonun 2008-yil 13-noyabrida qabul qilindi.²⁷ Unda xususan, 10 % bo'lgan kapital daromadlari solig'ini olib tashlash belgilab berildi. Bundan tashqari, daromad va korporativ soliqlar borasida:

- 5838-sonli qonunning 9-moddasiga asosan daromad va korporativ soliqlarni belgilashda imtiyozlar qo'llash va G'aznachilikning investitsiyalarga ajratilgan yerlarni assignatsiya qilishida yengilliklar yaratish;
- Investitsiyalarni rag'batlantirish, bandlikni oshirishga qaratilgan 5084-sonli qonun va ayrim hujjatlarga kiritilgan o'zgartirishlar muddatini 2009-yil 31-dekabriga qadar davom ettirish;
- 2008-yil 31-oktabridagi yig'imler bayonotidagi foizlarni 3 % deb belgilash va ularni 18 oy davomida bo'lib to'lash imkoniyatini joriy etish;
- 2009-yil 16-iyundagi daromad solig'i qonuni va ayrim qonularga o'zgartirishlar kiritishni belgilagan 5904-sonli qonunga muvofiq: 2014-yil 31-dekabriga qadar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini omborda saqlash solig'i va korporativ soliqlardan ozod qilish kabi imtiyoz va choralar belgilandi.²⁸

5084-sonli qonunda belgilangan hududlarda faoliyat yurituvchi korxonalar xarajatlarini subsidiyalash maqsadida kredit tashkilotlariga qo'shimcha 1 mlrd. turk lirasi ajratildi. "Bandlik paketi" nomi bilan tanilgan 5763-sonli qonunda xodimlar bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirish belgilab berildi.²⁹ Jumladan:

- qonunda belgilangan ish beruvchining ijtimoiy sug'urta to'lovi 15.5 % ga tushirildi va qolgan 5 % i G'aznachilik tomonidan to'lanishi belgilandi;
- bir yildan ortiq ishlagan ayollar va 18-29 yoshdagi erkaklar uchun pensiya qo'yilmalari, nogironlik va omon qolganlar sug'urtalari Ishsizlik Sug'urta Fondi

²⁷ Act No 5811 of 13.11.2008 "Encouraging Bringing in Turkish Deposits Kept Abroad"

²⁸ Act No: 5904 of 16.06.2009 "Amendments in the Income Tax Act and Some Other Acts"

²⁹ Act No 5763 of 15.05.2008 "Amendment of Labour Law and Some Other Laws"

tomonidan birinchi yilda to'liq, ikkinchi yilda 80 %, uchinchi yilda 60 %, to'rtinchi yilda 40 % va beshinchi yilda 20 % to'lanishi shart;

- xususiy korxonalarda G'aznachilik ijtimoiy su'gurta pullarini to'lashi uchun qo'yilgan shart: xodimlar shtati 50 va undan ortiqni tashkil etuvchi korxonalarda nogironlar kamida 3 % bo'lishi va sudlangan, terrordan aziyat chekkanlar ishga yollanishi sharti olib tashlandi.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotiga ko'ra: “ Ayrim davlatlar 2011-2014-yillarda inqiroz sababli yuzaga kelgan ishchilarning emmigratsiyasi va ish o'rinlarini qoplash uchun tezkor o'sish sur'atlarini namoyon qilishi zarur ”. Ammo yuqori o'sish sur'atlariga erishish uchun moliyaviy siyosatning o'zi kamlik qiladi, vaziyat bundanda ko'proq ishlashni va infrastruktura yaratishni taqazo etadi. Bularning orasida investitsiyalarni rag'batlantirish va xorijiy kapitalni jalb qilishning ahamiyati katta. Bugungi kuchli raqobat sharoitida investitsiyalar jalb qilishda davlatning biznes uchun yaratib bergan shoritlari ko'rsatkichlari juda ahamiyatli. Jumladan, 2010-yilda biznes yuritishning qulayligi bo'yicha Turkiya 183 ta davlat orasida 73-o'rinda. Umuman olganda, “Doing Business” reyting jurnalining qurilishga ruxsat olish, ishchi yollash, mulkni ro'yxatdan o'tkazish, kreditlar olish, sarmoyadorlarni ximoyalash, soliq to'lovlari, tashqi savdo, shartnomalar imzolash va biznesni tugatish ko'rsatkichlari bo'yicha 27-o'rindan 145-o'ringacha bo'lgan o'rinlarni egallaydi³⁰. Investitsiya iqlimini mustahkamlash muvofiqlastirish kengashining tashkil etilishi va 5838-sonli qonun joriy etilganidan keyin biroz byurokrtiyani kamaytirishga erishildi, lekin biznes sharoitlarini yaxshilash va qimmatga tushayotgan inqirozga qarshi choralardan maksimal foydalanish uchun bunday choralarni ko'paytirish lozim.

Yuqorida ta'kidlangan tadqiqot davomida Turkiyaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari jahon moliyaviy iqtisodiy sharoitida ancha qisqargani ma'lum bo'ldi. Jumladan, ishchilarni yollash bo'yicha Turkiya 145-o'rinni egallagan

³⁰ Doing Business; <http://www.doingbusiness.org/EconomyRankings/> (Accessed on 03.03.2010)

bo'lib, bu bandlikni oshirishning naqadar qiyin kechini ko'rsatadi. Bu xodimlarni yollashda yuzaga keladigan xarajatlar, ish haqining nisbattan balandligi bilan bog'liq.

Amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarga qaramay, ko'pgina muammolar saqlanib qolmoqda. Bular zamonaviy mehnat bozorining yangi talablari: hodimning kompyuterdan foydalanishni bilishi, tez aloqa o'rnatish olishi, xorijiy tilni bilishi, ma'lumotga ega bo'lishi kabi talablar bilan bog'liq. Yuqoridagi talablarning yuqoriligi tufayli ko'plar ishsizlar soni ortib bormoqda. Shuning uchun Turkiya ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Bularning barchasi ijtimoiy himoyalash dasturlarini mukammalshtirishni taqazo etadi. Turkiya kabi yuqori ishsizlik va ro'yhatga olinmagan bandlik darajasiga ega davlat uchun har tomonlama iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarda bu inobatga olinishi lozim. Qolaversa inqiroz sharoitida mazkur siyosatning olib borilishi suv va havodek zarur.

Birinchiidan, bunday siyosat talabni oshishiga olib keladi va iqtisodiyot jonlanadi. Shuning uchun ham uni ba'zan iqtisodiyotning avtomatik stabilizatori deb ham atashadi.

Ikkinchiidan, aholining quyi tabaqasiga bepul tibbiy yordam ko'rsatish orqali oilalarga minimal ijtimoiy sug'urtalar daromadlarini kafolatlash joriy etildi. Bu insonlarda yuzaga keladigan og'ir sharoitlarda majburlikdan og'ir sharoitdagi og'ir mehnatni bajarmasligi uchun kafolat bo'ladi. Ijtimoiy himoyaning kuchaytirilishi va tabiiq etilishi, nafaqat norasmiy iqtisodiyotni rivojlanishiga balki tugatilishiga ham olib kelishi mumkin. Xalqaro Mehnat Tashkilotining ta'kidlashicha, bir necha mamlakatlarda ijtimoiy yordamlar va himoya dasturlari inqiroz va ishsizlikka qarshi kurashda ularga yordam berdi. Shuning uchun Turkiyada ham, alohida tanlab olingan aholi qatlamiga qisqa ish vaqti va ishsizlik nafaqalarini kafolatlovchi ijtimoiy himoya dasturlari qabul qilinishi lozim.

Albatta ishlab chiqilgan choralarni amalga oshirish, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni jonlantirish uchun investitsiyalar va kreditlar zarur. Inqiroz davrida

Turkiyaning XVF dagi kvotasi 1,2 mlrd. SDR ga teng edi.³¹ SDR – maxsus qarz olish huquqlarini ifodalovchi shartli birlik bo'lib har yili mamlakatlarning moliyaviy-iqtisodiy holatiga qarab belgilanadi. Yuqoridagi qiymat 2 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lib, bu Turkiyani qoniqtirmadi. Odatda XVF ning qisqa muddatli krediti kvotaning besh barobaridan oshmasligi kerak, lekin Turkiya alohida mamlaktlar uchun belgilangan shartlarda kredit olishga urinib ko'rdi. XVF 19 mlrd. AQSH dollari miqdorida kredit taklif etdi, lekin turk hukumati mamlakatni 2009-yilda rivojlantirish uchun bu miqdorning yetmasligini ta'kidladi. Umuman olganda, 1958-yildan buyon XVF Turkiya uchun 18 marotaba dasturlar ishlab chiqqan.³² Bulardan oxirgi uchtasi ikki yildan qisqa vaqtda amalga oshirilgan. Bularning natijasi o'laroq bugungi kunda Turkiya XVF ning yirik qarzдорlaridan xisoblanadi va qarzlar miqdori 19 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. Inqiroz davridagi XVF ga murojat esa inqirozning nechog'lik Turkiya iqtisodiyotiga ta'sir etganligini ko'rsatmoqda.

2009-yil may oyida Bosh Vazir Rejep Tayip Erdog'an XVF i bilan 20 dan 40 mlrd.gacha bo'lgan miqdordagi kredit borasida muzokaralar olib borilayotganini ta'kidladi. Shuningdek Erdog'anning so'zlariga ko'ra ishsizlik 16 % dan ortgan, yangi ish o'rinlarini yaratish uchun investitsiyalar zarur bo'ib turgan vaziyatda, Iqtisodiy o'sishni ta'minlash va mamlakat daromadlarini oshirish borasida so'z ham bormaydi. Xalqaro bozorda neft narxining tushishi 2009-yilgi xisob operatsiyalarida so'nggi yetti yildagi minimal defitsit miqdoriga olib keldi. Natijada, avvallari xususiy sektorning xalqaro savdo operatsiyalarida yuzaga keladigan defitsit minimallashti va uni qoplash uchun XVF ning yordami zarur emas edi. Hukumatning ta'kidlashicha, XVF ning yordami budget defitsitini qoplash uchun kerak. Yangi budget loyihasi faol inqirozni yumshatishga qaratilgan

³¹ International Monetary Fund (IMF); World Economic Outlook: Sustaining the Recovery, October 2009,

³² Гриняев С.Н. Центр стратегических оценок и прогнозов, Аналитический доклад. М.2009// www.csef.ru

choralar negizida o'sishga erishishni ko'zlardi. Shuning uchun ham turk rahbarlari XVF ni mamlakatlar iqtisodini kreditlash asosiy prinsiplaridan voz kechib, uzoq muddatli kreditlash o'rniga qisqa muddatli kreditlashni qo'llashga undashdi. Fond esa quyidagi shartlarni qo'ygan edi: 2009-yilga mo'ljallangan birlamchi budjetda YaIM ning 0,5 % miqdorida profitsitga erishilishi va keyingi bosqichlarda moliya sektorida islohotlar o'tkazish.

2009-yil iyulida Bosh Vazir Rejep Tayip Erdog'an " sakkizlik " davlatlari rahbarlari uchrashuvi doirasida XVF boshqaruv direktori Daminik Stross-Kan bilan ham uchrashdi.³³ Bosh Vazir muzokaralarni 28-sentabr kuni Istambulda o'tadigan Xalqaro Valyuta Fondi va Jaxon Bankining yillik sessiyasigacha yakunlashni ma'qulladi. Bosh Vazir kelayotgan ikki oy davomida moliyaviy tartiblarni mustahkamlash va tizimli islohotlarni muzokaralarni tezroq yakunlanishi maqsadida amalga oshirishga tayyor ekanligini bildirdi. 2009-yil 16-sentabrda e'lon qilingan o'rta muddatli 2010-2012-yillarga mo'ljallangan rivojlantirish dasturida Turkiyaning makroiqtisodiy siyosati yoritildi. Dasturda Turkiya YaIM i 2009-yil yakunlari bo'yicha 6 % ga qisqarishi, 2010-yildan esa o'sish kuzatilishi bayon qilingan. Xususan, 2010-yilda YaIM 3,5 % ga, keyingi ikki yil davomida 4 % va 5 % ga o'sishi prognozlashtirilgan. 2009-yil yakunlari bo'yicha Turkiya nafaqat birlamchi budjet bo'yicha profitsitga erishadi, balki YaIM ning 2,1 % miqdoridagi davlat qarzlarning foiz to'loviga qadar defitsitni boshdan o'tkazishga majbur bo'ladi. Prognozga ko'ra 2010-yil birlamchi budjeti ham defitsitda bo'lib, u YaIM ning 0,3 % ini tashkil qiladi. Shuningdek, 2011-yilda 0,4 % lik, 2012-yilda 1 % lik budjet profitsiti bo'lishi kutilmoqda. Bunda davlat qarzdorligi 2008-yildagi YaIM ga nisbattan 40 % lik ko'rsatkichdan, 2009-yilda 47 % ga, 2010-yilda 49 % ga o'sishi va faqatgina 2011-2012-yillardan pasayishi nazarda tutilmoqda.

³³ www.tbb.org.tr, Banks Association of Turkey; Banks in Turkey 2008, Ankara, May 2009, (Accessed on 01.03.2010)

Dasturning moliyaviy jihatlarini turk nashriyotlari XVF kutgan natijalardan ancha uzoq deb ta'kidlashdi. Lekin dastur e'lon qilinganidan keyin, XVF ning Turkiya bo'yicha missiyasi rahbari Rashel Van Elkan davlatning og'ir vaziyatga tushgan moliya tizimini asta-sekin to'g'irlashni maqsad qilgan, xususiy sektorni kengayishi va iqtisodiy o'sishni ko'zda tutuvchi o'rta muddatli rivojlanish dasturidan ruhlanayotgani, dasturda global inqirozning Turkiyaga yetkazgan salbiy ta'sirlarini inobatga olgan holda, davlat qarzlarining YaIM ga nisbattan 2011-yilda barqarorlashishi va keyingi yillardan qisqarishi kabi aniq makroiqtisodiy maqsadlar qo'yilganini ma'lum qildi.

XVF va Jahon Bankining yillik sessiya davomida 2-oktabr kuni bo'lgan konferensiyada XVF ijrochi direktori Daminik Stross-Kan Turkiya va XVF o'rtasida uzoq davom etgan muzakarlarga qaramay tomonlar sessiya davomida bu masalani yana uzoq muddatga qoldirishga qaror qilishganini e'lon qildi. 2010-2012-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli rivojlanish dasturida 2009-yildagi to'lov balansi joriy operatsiyalari xisobi bo'yicha defitsit YaIM ga nisbattan 1,8 % dan, 2010-yilda 2,8 % bo'lishi va 2012-yilga kelib 3,9 % bo'lishi prognozlashtirilgan.³⁴ Raqamlarni absolyut sonlarga o'tkazganimizda vaziyat quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: 2009-yilning 11 oyi yakuniga ko'ra defitsit 10 mlrd. AQSH dollarini, 2010-yil yakunida esa 25 mlrd. AQSH dollari bo'lishi kutilmoqda, bu dastur prognozlaridan biroz ko'proq ham. Amalda bu inqirozgacha bo'lgan davr rivojlanishiga qaytishni ko'rsatadi. Dasturda buni oldini olish, turk iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan choralar belgilangan, ammo hujjatdagi joriy operatsiyalar xisobi bo'yicha prognozlarga qaraganda, o'rta muddatdagi istiqbolda ularning samaradorligi cheklanganini ko'rish mumkin. Ana endi inqirozga qarshi choralarni, ular keltirgan natijalarni umumlashtirib ko'rib chiqamiz.

³⁴ TEPAV; Türkiye Ekonomi Politikaları Araştırma Vakfı (TEPAV); 2007-08 Küresel Finans Krizi ve Türkiye: Etkiler ve Öneriler,


Avvalo inqirozga qarshi choralar sifatida bank sektorini qo'llab quvvatlash, investityalarni jalb qilish, soliq yuklarini yumshatish: olib tashlash va imtiyozlar berish, qurilish ishlab chiqarish va boshqa sektorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar va qonunlar qabul qilinganini eslab o'tish lozim. Inqirozdan aziyat chekkan boshqa davlatlarda ham shunga o'xshash choralardan foydalanildi, faqat ularning shakli va hajmi jihatidan turli ko'rsatkichlar kuzatiladi.

Jumladan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra³⁵, G-20 likning yetakchi davlatlarida 2009-yilda inqirozga qarshi choralarga o'rtacha YaIM ning 1,9 % miqdorida mablag' sarflangan bo'lsa, G-20 likning rivojlanayotgan mamlakatlarida YaIM ning 2,2 % i sarflangan. G-20 davlatlarining inqirozga qarshi choralarni amalga oshirish uchun ajratgan mablag'lari, davlatlarning YaIM i ulushi ko'rinishida eng past ko'rsatkich – 1.2 % Argentinaga va eng yuqori ko'rsatkich - 13.3 % Xitoyga tegishli bo'ldi. Shuningdek, Turkiya inqirozga qarshi choralarni amalga oshirish uchun YaIM ning 5.2 % ini ajratganini ko'rish mumkun (2.3. -diagramma).

2.3. -diagramma

G-20 davlatlarining inqirozga qarshi dasturlarga ajratgan mablag'lari YaIM ning ulushi ko'rinishida

³⁵ International Labour Organization, (ILO), (2010) Global Employment Trends, Geneva, January 2010




Manba: International Labour Organization

Turkiya G-20 likning yetakchi davlatlari qatoridan o'rin olgan bo'lib, diagrammalarda aks ettirilganidek, YaIM ning 5,2 % i ya'ni qariyb 38 mlrd. AQSH dollarini, 2009-yil oxiriga qadar inqiroz oqibatlarini bartaraf etishga sarfladi(2.2. 7-diagramma). Bularning natijasi o'laroq ishsizlik borasida ham ijobiy tendensiya kuzatildi. Jumladan, 2009-yilning birinchi choragida ishsizlar soni 417 mingga, ishsizlik nafaqalari oluvchilar soni esa 118 mingga oshdi va ko'rilga chora-tadbirlar natijasida 2009-yil yakuniga ishsizlar soni 431 mingga, ishsizlik nafaqalari oluvchilar soni esa 80 mingtaga qisqardi. 2009-yil 13 % ni tashkil etgan ishsizlik darajasini, 2010-yilda 10,5 % tushirishga erishildi. TurkStat ma'lumotiga ko'ra, 2010-yil boshidan ishga joylashganlarning soni 1,5 mln. kishini tashkil etib, norasmiy ishlovchilar soni 0,9 % ga qisqardi. Jami ish bilan ta'minlanganlar soni esa 23,5 mln. kishi. Shunga qaramay ko'rilgan chora-tadbirlar barcha sohalardagi ishsizlikni qamrab ololmadi. Inqirozga qadar ham ishsizlik muammosi kuchayotgan edi va ko'rilgan tezkor choralar butunlayin muammoga barham berolmaydi. Uning uchun muammoga kengroq qaragan holda unga qarshi dasturlar ishlab chiqish lozim, lekin hukumat iqtisodiyotning o'sishi bu muammolarni sekin-asta bartaraf etishidan umid qilmoqda.

Turkiyada so'nggi inqiroz 2001-yilda kuzatilgan edi. U davrda hukumat amalga oshirgan iqtisodiy islohotlar, asosan, ishlab chiqarishni jadallashtirish va o'sayotgan bozorda mamlakat iqtisodiy barqarorligiga ziyoniga bo'lsa ham maksimal daromad olishga qaratildi. O'rtacha yillik 7 % iqtisodiy o'sish kuzatilgan 2002-2007-yillarda tashqi savdoda import yetakchilik qilgan va bu real YaIM ning o'sishiga salbiy tas'ir etgan. Bu davrlarda ham muammolar yetarli bo'lgan va ular bartaraf etilmasdan, Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mamlakatga ta'sir etishi butun iqtisodiyotni larzaga soldi. Iqtisodiyot zanjirli bog'lamga o'xshaydi. Shu bois bir sohadagi muammolari albatta boshqa sohalarga ham salbiy ta'sir etadi. Inqiroz boshlangan 2008-yilda YaIM 0,9 % ga o'sgan bo'lsa, bevosita inqiroz yili sanalgan 2009-yilda YaIM ning -6 % ga qisqardi. Hukumat qo'llagan chora-tadbirlar natijasi o'laroq, 2010-yilning birinchi 9 oyida o'sish sur'ati qariyb 9 % ni tashkil etdi. Bu davr ayniqsa xizmat ko'rsatish, sanoat va qurilish sektoriga omadli keldi.

2.4.-diagramma

G-20 davlatlarining inqirozga qarshi dasturlarga ajratgan mablag'lari
(mlrd. AQSH dollarida)



Manba: International Labour Organization

Ammo vaziyatning murakkabligiga qaramay oxir oqibat ijobiy ko'rsatkichlarga ham erishildi. 2010-yil birinchi choragida Turkiya, iqtisodiyoti 11,9 % ga o'sgan Xitoydan keyin 11,7 % lik natija bilan Jahonda o'sish sur'atlari bo'yicha ikkinchi bo'ldi. Turkiya Bosh Vaziri o'rinbosari Ali Babajanning ta'kidlashicha: “ Bunaqa o'sish sur'atlari bilan Turkiya 2023-yilga kelib Jahonning yirik 10-iqtisodiyotiga aylanib, Yevropada ikkinchi o'ringa ko'tariladi. Mamlakat o'z oldiga ana shunday maqsadlarni qo'ydi va shu yo'nalishda harakatlanmoqda ”. Turkiya hukumati xatto yaqin istiqbolda Xitoyni ortda qoldirishini e'lon qildi. Jumladan, Bosh Vazir Rejep Tayip Erdog'an Turkiya birinchilardan bo'lib inqirozdan chiqqanini ma'lum qildi. Shuningdek uning so'zlariga ko'ra, G-20 likning Kanadada o'tgan yig'ilishida yetakchi davlatlar tomonidan Turkiya yutuqlari qayd etilib o'tildi. Bu boradi u shunday deydi: “ Endi butun Jahon Turkiyani namunali davlat sifatida ko'rmoqda ”. Bunga tasdiq sifatida Turkiyani Yevropa Ittifoqiga qo'shilishini yoqlovchi, Turkiya bo'yicha mustaqil komissiya rahbari, sobiq Finlyandiya Prezidenti Marti Axtisari so'zlarini keltirib o'tish mumkun: “ Turkiya iqtisodi boshqa Yevropa Ittifoqi davlatlariga nisbattan ancha

yuqori darajaga ko'tarildi",-degan so'zlarini keltirib o'tish mumkun. Erishilgan yuqori ko'rsatkichlarga tayanib, turk hukumati moliyaviy barqarorlik uchun iqtisodiy o'sishdan ham voz kechmoqda. Jumladan, mamlakatdagi vaziyatni inqiroz choralirini tugatish imkonini beradi deb baholagan hukumat, Markaziy Bank xususiy banklarni zahiralash stavkasini xorijiy valyutlarda 10 % dan 11 % ga, milliy valyutada 5 % dan 5,5 % ga oshirdi. Bu mamlakat iqtisodiyotidan 3 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi naqd pul yig'ib olinayotganini bildiradi. Inqirozdan keyingi davrda qurilish sektori 2010-yil choragida 21,9 % ga osib yetakchiga aylandi. Shuningdek, baliq ovlash sanoati 15,7 %ga, sanoat ishlab chiqarishi 15,4 % ga o'sganligini ta'kidlash lozim. Ammo 2010-yil yakunlari bo'yicha Xitoyni ortda qoldirishga erishilmadi. Turkiya YaIM 2010-yilda 6,8 % lik o'sish sur'ati namoyon etgan bo'lsa, Xitoy 10 % lik o'sish sur'atini erishdi.

Turkiyada so'nggi inqiroz 2001-yilda kuzatilgan edi. U davrda hukumat amalga oshirgan iqtisodiy islohotlar, asosan, ishlab chiqarishni jadallashtirish va o'sayotgan bozorda mamlakat iqtisodiy barqarorligiga ziyoniga bo'lsa ham maksimal daromad olishga qaratildi. O'rtacha yillik 7 % iqtisodiy o'sish kuzatilgan 2002-2007-yillarda tashqi savdoda import yetakchilik qilgan va bu real YaIM ning o'sishiga salbiy tas'ir etgan. Bu davrlarda ham muammolar yetarli bo'lgan va ular bartaraf etilmasdan, Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mamlakatga ta'sir etishi butun iqtisodiyotni larzaga soldi. Iqtisodiyot zanjirli bog'lamga o'xshaydi. Shu bois bir sohadagi muammolari albatta boshqa sohalarga ham salbiy ta'sir etadi. Inqiroz boshlangan 2008-yilda YaIM 0,9 % ga o'sgan bo'lsa, bevosita inqiroz yili sanalgan 2009-yilda YaIM ning -6 % ga qisqardi. Hukumat qo'llagan chora-tadbirlar natijasi o'laroq, 2010-yilning birinchi 9 oyida o'sish sur'ati qariyb 9 % ni tashkil etdi. Bu davr ayniqsa xizmat ko'rsatish, sanoat va qurilish sektoriga omadli keldi.

XULOSA

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Turkiyadagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirimavzusidagi bitiruv malakaviy ishini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yurtboshimiz jaxonda oz' e'tirofini topgan va Respublikamizning iqtisodiy o'sishini ta'minlagan siyosatning asoschisi xisoblanadi. Og'ir inqiroz sharoitida oqilona belgilangan vazifalar, Jaxonda retsessiya kuztilayotgan paytda O'zbekistonda YaIM ning o'sishini ta'minladi. Jumladan, 2009-yil mart oyida nashr qilingan " JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI, O'ZBEKISTON SHAROITIDA UNI BARTARAF ETISHNINGYO'LLARI VA CHORALARI " nomli prezidentimiz asari hukumatimiz uchun dasturi amal bo'lib xizmat qildi.
2. 2006-yilda AQSHda ipoteka uylari savdosining tushishi va 2007-yilda yuqori xavf-xatarli kreditlarning berilishi AQSH iqtisodiyotida muammolarga olib keldi. Vaq to'tishi bilan ipoteka inqirozi moliyaviy tus ola boshladi va nafaqat AQSH, butun jaxon iqtisodiyotiga xavf sola boshladi. Fond bozorlarida kotirovkalar tushishi boshlandi va kompaniyalarning qimmatli qog'ozlarni fond bozorlariga joylashtirib daromad olish imkoniyatlari qisqardi.
3. Inqirozning yuzaga kelishida xom-ashyo narxining ham sezilarli ta'siri bor albatta.1981-2000-yillarda kuzatilagan iste'mol mahsulotlarining katta depressiyasidan keyin, muntazam iste'mol o'sishi boshlandi. Bu esa xam-ashyo narxining o'sib borishiga olib keldi. 2008-yilda ko'plab mahsulotlar, ayniqsa neft va oziq-ovqat mahsulotlarining narxi iqtisodiyotga zarar yetkazuvchi darajada o'sdi. Jumladan 2008-yil yanvar oyida bir barrel neft narxi 100 AQSH dollaridan oshib ketdi. 2008-yil 11-iyulda WTI markasidagi neftning bir barreli tarixdagi eng yuqori maksimumga erishib, 147,27 AQSH dollariga sotildi. Inqiroz ta'sirida esa, 2008-yil oktabrida narx 61,24 AQSH dollariga, noyabrda esa 51 AQSH dollariga tushdi.
4. Yuzaga kelgan ipoteka inqirozi 2008-yil sentabrida Jaxon banklarining likvidlik inqirozini olib keldi. Banklar kreditlar berishni to'xtatishdi. Jumladan, avtomobil kreditlarining to'xtatilishi Jaxon avtosanoati yetakchilarining savdo hajmini qisqarishiga olib keldi. Inqiroz ko'chmas mulk sektoridan real iqtisodiyot sektoriga o'tdi va retsessiya boshlanib, ishlab chiqarish hajmlari qisqardi.

2008-yil boshidan inqiroz global ko'lamda rivojlana boshladi. U aksariyat mamlakatlarda ishlab chiqarishni qisqarishi, ishsizlikning oshishi, xom-ashyo talabi va narxini qisqarishida o'z ifodasini topdi. Inqiroz kelib chiqishini quyidagi sabablar bilan izohlash mumkini:

- Iqtisodiy rivojlanishning davriyligi.
- Kredit bozoridagi tartibsiz faoliyat va uning natijasidagi ipoteka inqirozi.
- Xom-ashyo narxining baland bo'lganligi.
- Fond bozoridagi haddan ortiq operatsiyalar

5. XXI asrning ilk o'n yilligi eng katta iqtisodiy inqirozi bilan yakunlandi. 2008-yilda ko'plab rivojlangan mamlakatlarning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining keskin pasayishi va shu yilning oxirlarida vaziyatni global retsessiyaga olib kelishi jaxon iqtisodiyotida inqiroz yuzaga kelgani ko'rsatdi. Bu inqiroz jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi deb nomlandi.

6. 10 – 13 - oktabr kunlari Vashingtonda “ Katta yettilik ” davlatlari va Rossiya (G-7 + Rossiya = G8) Moliya Vazirlari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda xalqaro ahamiyatdagi boshqa reja tasdiqlandi. Unda asosiy 5 ta ustuvor yo'nalish belgilandi:

- Tizim uchun muhim bo'lgan barcha moliya institutlarini bankrotlikka duch kelmasligi uchun mavjud barcha vositalardan foydalanish;
- Kredit va pul bozorlari faoliyatini yaxshilash uchun barcha choralarni ko'rib chiqish, banklar va boshqa moliya institutlarini likvidlik va moliyalashtirish uchun erkin yo'lni kafolatlash;
- Banklarni ishonchni qozonish, biznes va jismoniy shaxslarni kreditlash faoliyati uchun yetarli darajada mablag' jalb qilishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish. Kapital davlat yoki xususiy mulklar evaziga shakllantirilishi mumkun;

- Omonatlarni sug'urtalash milliy dasturlari ishonchliligini davlat kafolatlari tizimi orqali ta'minlash;
- Ipoteka va qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorlarini qayta faoliyat yuritishi uchun ko'maklashish.

7. Turkiyaning g'arbiy va janubiy sanoat hududlaridagi yirik kompaniya ishchilari birinchilardan bo'lib o'z ish o'rinlaridan ajralishgan. Shuningdek, 2008-yil 3-choragiga qadar 10 % bo'lib turgan ishsizlik darajasi, 2009-yil 1-choragida 16,1 %, 2-choragida 13,6 % ni tashkil etdi.

8. Turkiya bandlik tashkiloti – IŞKUR bergan ma'lumotga ko'ra, turk gastarbayerlarining katta qismi Rossiya, Yaqin Sharq va O'rta Osiyoda mehnat qilishadi. Avvallari gastarbayerlar ishlashga ketadigan asosiy mamlakat Germaniya edi, hozirda esa Rossiyadir. Rossiyaga 2009-yil dastlabki 7 oyi davomida 4480 ta turk fuqarosi ishlashga ketgan. Ammo bu ko'rsatkich inqirozdan avval 12 mingni tashkil etgan edi. Rossiyadan keyingi o'rinlarda Liviya, Saudiya Arabistoni va Turkmaniston joylashgan va faqatgina 20 ta fuqaro shu muddat davomida AQSH ga ishlashga ketganligini ta'kidlash mumkin.

9. Turkiya iqtisodini avtomobil ishlab chiqarish va uni sotish vositasida jonlantirishi mumkin bo'lgan avtomobilsozlik sanoati ham inqiroz davrida og'ir kunlarni boshdan o'tkazishga majbur bo'ldi. Jumladan, 2009-yil avgustida xorijga avtomobil sotish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 % ga qisqarib, avtomobilsozlik kompaniyalari 973,7 mln. dollar daromad ko'rishdi. O'tgan yilning shu davrida kompaniyalar 1,37 mlrd. dollar daromad ko'rishgan edi.

10. Inqiroz sharoitida tashqi savdo quyidagi ko'rinishda bo'ldi. Xalqaro savdolarining qisqarishi bilan tabiiyki, Turkiya eksporti ham qisqardi. Turkiya eksportchilarining ma'lumotiga ko'ra, 2009-yilning o'n bir oyida Turkiya eksporti 87,6 mlrd. dollarni, 12 oyi bo'yicha esa 98,5 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2008-yilda 132 mlrd. dollar bo'lgan. 2008-yilda qariyb 202 mlrd. dollarni tashkil etgan import, inqiroz sababli 66 % ga qisqardi va 134 mlrd. dollarni tashkil etdi.

11. 5084-sonli qonunda belgilangan hududlarda faoliyat yurituvchi korxonalar xarajatlarini subsidiyalash maqsadida kredit tashkilotlariga qo'shimcha 1 mlrd. turk lirasi ajratildi. "Bandlik paketi" nomi bilan tanilgan 5763-sonli qonunda xodimlar bilan bog'liq xarajatlarni qisqartish belgilab berildi.³⁶ Jumladan:

1. qonunda belgilangan ish beruvchining ijtimoiy sug'urta to'lovi 15.5 % ga tushirildi va qolgan 5 % i G'aznachilik tomonidan to'lanishi belgilandi;
2. bir yildan ortiq ishlagan ayollar va 18-29 yoshdagi erkaklar uchun pensiya qo'yilmalari, nogironlik va omon qolganlar sug'urtalari Ishsizlik Sug'urta Fondi tomonidan birinchi yilda to'liq, ikkinchi yilda 80 %, uchinchi yilda 60 %, to'rtinchi yilda 40 % va beshinchi yilda 20 % to'lanishi shart;
3. xususiy korxonalarda G'aznachilik ijtimoiy su'gurta pullarini to'lashi uchun qo'yilgan shart: xodimlar shtati 50 va undan ortiqni tashkil etuvchi korxonalarda nogironlar kamida 3 % bo'lishi va sudlangan, terrordan aziyat chekkanlar ishga yollanishi sharti olib tashlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

³⁶ Act No 5763 of 15.05.2008 "Amendment of Labour Law and Some Other Laws"

farmonlari va hukumat qarorlari

1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2003. 8,9,10-betlar.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablarni tasdiqlash to'g'risida" gi 225-sonli buyrug'i, 1998. Oliy ta'lim meyoriy hujjatlar to'plami, I tom, 319-322-betlar.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

2.1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent, "O'zbekiston", 2009.

2.2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent. "O'zbekiston", 1995. - 269 b.

2.3. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. /I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

III. Turkiya Respublikasi qonunlari va hukumat qarorlari

- 3.1. Act No 4772 of 27.06.1945 “Employment Injury and Occupational Disease Insurance”
- 3.2. Act No 4792 of 09.07.1945 “Constitution of Workers’ Insurance Institution”
- 3.3 Act No 5417 of 02.06.1949 “Old-age Insurance”
- 3.4 Act No 5434 of 01.01.1954 “Constitution of the State Pension Fund”
- 3.5 Act No 5502 of 04.01.1950 “Sickness and Maternity Insurance”
- 3.6 Act No 6900 of 30.01.1950 “Disability, Old-age and Survivors’ insurance”
- 3.7. Act No 506 of 17.07.1964 “Social Insurance Act”
- 3.8. Act No 1479 of 02.09.1971 “Self-employed Social Insurance Act”
- 3.9. Act No 2022 of 01.07.1976 “Turkish citizens who are over the age of 65 and who are destitute, infirm and without any means of support”
- 3.10. Act No 3294 of 29.05.1986 “the Social Assistance and Solidarity Encouragement Fund”
- 3.11. Act No 4447 of 08.09.1999 “Unemployment Insurance Fund”
- 3.12. Act No 4947 of 16.07.2003 “Constitution of the Social Insurance Institution”
- 3.13. Act No 5502 of 16.05.2006 “Constitution of Social Security Institution”
- 3.14. Act No 5510 of 16.06.2006 “Social Insurance and General Health Insurance”
- 3.15 Act No 5754 of 17.04.2008 “Amendment of Social Insurances and General Health Insurance and Some Other Laws and Statuary Decrees”
- 3.16. Act No 5763 of 15.05.2008 “Amendment of Labour Law and Some Other Laws”
- 3.17. Act No 5811 of 13.11.2008 “Encouraging Bringing in Turkish Deposits Kept Abroad”
- 3.18. Act No 5838 of 18.02.2009 “Amendments in Some Acts”

3.19. Act No: 5904 of 16.06.2009 “Amendments in the Income Tax Act and Some Other Acts”

IV. Kitoblar va monografiyalar

4.1. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации. – М.: ЗАО “Издательство “Экономика”, 2007. – 359 ст.

4.2. Кругман П.Р., Обсфельд М. Международная экономика: теория и практика. /Пер. с англ. М.: МГУ, ЮНИТИ, 1997. – 349 ст.

4.3. Шишков Ю.В. Теоретические проблемы мировой системы хозяйствования. //Экономическая теория национальной экономики и мирового хозяйства. М., 2007. –257 ст.

4.4. В. Г. Матвеев. «Основы экономических знаний». Ташкент, «Шарк», 1998. 81-120 ст.

V. Jurnal va ilmiy to’plamdagi maqolalar

5.1. Alliances of Liberals and Democrats for Europe; The International Financial Crisis; Its Causes and What To Do About It, Liberals and Democrats Workshop, February, 27th 2008.

5.2. Arien, Arien,, Human Resource Development Country Analysis for Turkey, ETF Working Paper, May 2008.

5.3. Arin, Tulay; “The Poverty of Social Security: Welfare Regime in Turkey” in Nesecan Balkan and Sungur Savran, *The Ravages of Neo-liberalism: Economy, Society and Gender in Turkey*, New York.

5.4. Frenkel, Robertol and Martin Rapetti: *Some Reflections on the Current Global Crisis from a Developing Countries Perspective*, Friedrich Ebert Stiftung, Briefing Paper 6, May 2009.

5.5. Brook, Anne-Marie and Edward Whitehouse, “The Turkish pension system: further reforms to help solve the informality problem”, OECD Social, Employment and Migration Working Papers, No.44, 2006.

5.6. Griffith-Jones, Stephany and José Antonio Ocampo; *The Financial Crisis and Its Impact on Developing Countries*, UNDP Working Papers, number 53 April, 2009.

5.7. Hanusek, Eric A. and Ludger Wößmann; *Education Quality and Economic Growth*, World Bank Research Papers, Washington, 2007, P.16

5.8. Heckman, J. and C. Pages, “Introduction to Law and Employment: Lessons from Latin America and The Caribbean, in *Law and Employment: Lessons from Latin America and The Caribbean*, J. Heckman and C. Pages, Editors, University of Chicago Press, Chicago, 2004 and Gruber J., “ The Incidence of Payroll Taxation . Evidence from Chile” *Journal of Labor Economics*, 2004, 15 (3).

5.9. Ministry of Labour and Social Security, *Action Plan*, 2009.

5.10. State Planning Organization; (2009a) *Pre-Accession Economic Programme*, 2008, Ankara, April-2009,

- (2009b) *Economic Developments (Ekonomik Gelişmeler-In Turkish)*, Ankara, December-2009,
- 2010 Annual Programme, ANKARA – 2010,

5.11. И.Свистунова: Экономика Турции в условиях мирового финансового кризиса. 02.12.2008

VI. Xorijiy tildagi adabiyotlar

6.1. Максим Блант. Финансовый кризис. Издательства: АСТ, Астрель, Харвест, 2008 г.

6.2. Р. М. Нижегородцев, А. С. Стрелецкий. Мировой финансовый кризис. Причины, механизмы, последствия. Издательство: Либроком, 2008 г.

6.3. Уткин А. И. Как пережить экономический кризис. Уроки Великой депрессии. Издательство: Яуза, Эксмо

6.4. Vedat Akman. Modern Dünyadaki En Büyük Ekonomik Kriz. Bu çalışmada Asya, Rusya ve Latin Amerika krizleri ile ilgili yerli ve yabancı basında yayınlanmış makale, haber ve konu ile ilgili kitaplar taranmış, bir bütün oluşturacak şekilde derlenmiştir. 1998

6.5. Finansal Krizler ve Türkiye . Fatih Özatay. Aralık 2009.

6.6. Küresel Kriz - Liberal Ekonominin Çöküşü . Alev Coşkun. Nisan 2011.

6.7. Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. A Selected. Edited with an introduction and Notes by Kathrin Sutherland. – Oxford University Press, 1998, - 618 pp.

VII. Statistlik to'plamlar va ma'lumotnomalar

7.1. TEPAV; Türkiye Ekonomi Politikaları Araştırma Vakfı (TEPAV); 2007-08 Küresel Finans Krizi ve Türkiye: Etkiler ve Öneriler, (The Financial Crisis of 2007-08 and Turkey: Impacts and Suggestions) (In Turkish).

7.2. ISKUR; İşgücü Piyasası Araştırma Sonuç Raporu, (Labour Market Research Report in Turkish) 2009 I. Dönem, Ankara-2009.

7.3. European Commission; Communication (COM98-219).

7.4. Banks Association of Turkey; Banks in Turkey 2008, Ankara, May 2009.

7.5. Civil Society Background Document on the UN Conference on the World Financial and Economic Crisis and its Impact on Development.

7.6. Doing Business.

- <http://www.doingbusiness.org/EconomyRankings/> (Accessed on 03.03.2010),

- <http://www.doingbusiness.org/ExploreEconomies> (Accessed on 18.03.2010)

7.7. International Labour Organization, (ILO): (2004) A Fair Globalization, Creating Opportunities for All, Geneva, February-2004,

- (2009a) World of Work Report 2009, the Global Jobs Crisis and Beyond, Institute for Labour Studies, Geneva, 2009,

- (2009b) Recovering from the crisis: A Global Jobs Pact, adopted by the International Labour Conference at its Ninety-eighth Session, Geneva, 19 June 2009,

- (2010) Global Employment Trends, Geneva, January 2010.

7.8. International Monetary Fund (IMF); World Economic Outlook: Sustaining the Recovery, October 2009.

7.9. Under-secretariat of Treasury, Turkish Economy, 10 March 2010,

7.10. United Nations Commission for Social Development; (2009a) the Current Global Crises and their Impact on Social Development, Forty-seventh session, 4-13 February 2009.

7.11. United Nations; (2009a) Conference on the World Financial and Economic Crisis and Its Impact on Development, New York, 1-3 June 2009

- (2009b) Resolution No 63/303: on Outcome of the Conference on the World -Financial and Economic Crisis and Its Impact on Development, 9 July 2009,

- (2010) World Economic Situation and Prospects 2010,

7.12. World Bank; (2008) Investing in Turkey's Next Generation: The School-to-Work Transition and Turkey's Development, Report No. 44048 – TU, June 2008,

- (2009a) Enterprise Notes, Country Surveys No:1, 2009,

- (2009b) Human Development Sector Unit, Estimating the Impact of Labor Taxes on Employment and the Balances of the Social Insurance Funds in Turkey, April 2009, P.16,

- (2009c) Pensions in Crisis: Europe and Central Asia Regional Policy Note, November 12, 2009,

7.13. UNCTAD. World Investment Report 2010

7.14. “ Economic Report Turkey 2008-2009”. Ankara, 2009.

7.15. “ Turkey Country Economic Memorandum ” Ankara, 2008.

7.16. Turkey : Current and Future Political, Economic and Security trends . Ankara , 2007.

7.17. SETA. Siyaset, Ekonomi ve Toplum Araştırmaları Vakfı. Mart, 2011.

7.18. Suleyman YAZIR. ADVERSE IMPACT OF GLOBAL FINANCIAL CRISIS ON EMPLOYMENT AND SOCIAL SECURITY IN TURKEY

VIII. Internet resurslar

- 8.1. www.stat.uz
- 8.2. www.wikipedia.com
- 8.3. www.csef.ru
- 8.4. www.cisstat.org.
- 8.5. www.balita.ph/2009/12/04/interview-un-expert-forecasts-tough-time-for-global-economic-recovery-in-2010/
- 8.6. www.tbb.org.tr/tr/Banka_ve_Sektor_Bilgileri/Istatistiki_Raporlar.aspx
- 8.7. news.bbc.co.uk/2/hi/2817995.stm
- 8.8. www.ffdn.go.org/sites/default/files/Final_CS_Background_Document.pdf,
- 8.9. money.cnn.com/2009/05/27/news/mortgage.overhang.fortune/index.htm
- 8.10. www.mevzuatdergisi.com/2009/10a/01.htm
- 8.11. www.economist.com/world
- 8.12. www.iskur.gov.tr/LoadExternalPage.aspx?uicode=statikistatistikindex
- 8.13. www.globalissues.org
- 8.14. www.reuters.com/article/idUS193520+27-Feb-2009+BW20090227
- 8.15. www.undp.org/economic_crisis/overview.shtml
- 8.16. www.worldbank.org.tr/WBSITE/EXTERNAL/COUNTRIES/ECAEXT/TURKEYEXTN/0,,contentMDK:20630704~menuPK:361720~pagePK:141137~piPK:141127~theSitePK:361712,00.html
- 8.17. www.polpred.ru
- 8.18. www.setav.org